

NASHR KO'RSATKICHI 1404



URGANCH  
INNOVATSION  
UNIVERSITETI



OGAHIY

# INNOVATSIIYA VA TARAQQIYOT



URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI

Ijtimoiy tarmoqlari va manzili



@urganch\_iu



@uriu.xz



(91) 436-20-22  
(90) 436-20-22  
(88) 909-22-20



@uriu



Xorazm viloyati Urganch  
shahri "Mustaqillik" MFY  
Gurlan ko'chasi, 2-uy



2023 (9, 10)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy*  
***JURNAL***

**2023-yil 9-10-son**

**Urganch-2023**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas’ul kotib:**

*U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir hay'ati:**

*Z.Do'simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O'razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G'ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.I.Yo'ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD).*

*E.Ro'ziyev – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*D.A.O'razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*M.J.Jumaniyazov – Texnika fanlari doktori, professor.*

*S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*O'.I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.*

*Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*I.S.Yusupov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.*

*B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).*

*R.Y.Ro'ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).*

*B.Rasulov – Tarix fanlari doktori, dotsent (AnDPI rektori).*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*H.H.Tadjiev – Turkologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog'iston).*

*J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.Y.Batirov – Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

*J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*B.B.Nurullayeva – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*M.S.Abdullayev – San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**ISSN**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal.  
№9-10 (5), Urganch innovatsion universiteti, 2023-yil.

## MUNDARIJA:

### TARIX

<b>S. MATKARIMOVA.</b> An'anaviy taomlanish madaniyati mavzusini o'rganishning nazariy jihatlari .....	4
<b>I. HOSHIMJONOV, Sh. ARZIMBETOVA.</b> Zamonaviy manguberdishunoslik haqida ayrim mulohazalar .....	12
<b>Q. MASHARIPOV.</b> Xorazmshoh-anushtegeniylar davlatining buyuk ipak yo'lida tutgan o'rni .....	17
<b>U. ABDALOV.</b> Xorazmshohlar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnomadaniy jarayonlar tarixiga doir ba'zi masalalar. ....	29
<b>U. BEKMUHAMMAD.</b> Ogahiy abadiyati. ....	39

### ARXITEKTURA

<b>G.DURDIYEVA, A.ZARGAROV, A.BOBOJONOV,</b>	
<b>B.XUDAYBERGANOV.</b> Ichon qal'a hududidagi turar joylarni restavratsiya va rekonstruksiya qilish hamda mexmonxonaga qayta jixozlash bo'yicha ilmiy amaliy loyiha taklifi. ....	43

### FILOLOGIYA

<b>U.BEKMUHAMMAD.</b> Afsonaga aylangan umr .....	48
<b>B.YUSUPOVA.</b> Alisher Navoiy asarlarida komil inson talqini va ularning g'oyaviy tarbiyadagi o'rni. ....	59

**TARIX**
**AN'ANAVIY TAOMLANISH MADANIYATI MAVZUSINI  
O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI**
**UO'K 570.510**

**Sadoqat  
MATKARIMOVA**

**Tarix fanlari  
doktori (DSc),  
dotsent.**



*Annotatsiya:* ushbu maqolada an'anaviy ovqatlanish madaniyati masalasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Xususan, unda an'anaviy taomlanish madaniyati Xorazm misolida yoritilgan va uning o'ziga xos lokal xususiyatlari asoslangan. An'anaviy ovqatlanish madaniyatining kelib chiqishiga ta'sir qilgan turli omillar tahlil qilingan.

*Аннотация:* в статье рассматривается традиционной культуры питания с научно-теоретической точки зрения. В частности, она основана на традиционной кулинарной культуре Хорезма и ее специфических местных особенностях. Анализируются различные факторы, повлиявшие на зарождение традиционной культуры питания.

*Annotation:* this article discusses the issue of traditional food culture from a scientific and theoretical point of view. In particular, it is based on the traditional culinary culture of Khorezm and its specific local features. Various factors that influenced the emergence of traditional food culture are analyzed.

*Kalit so'zlar:* taomlanish madaniyati, tarixiy omil, ijtimoiy-iqtisodiy omil, etnik va diniy omil, geografik determinizm, tarixiy avtoxtonizm, etnik ekologiya.

**Ключевые слова:** культура питания, исторический фактор, социально-экономический фактор, этноконфессиональный фактор, географический детерминизм, исторический автохтонизм, этническая экология.

**The keywords:** food culture, historical factor, socio-economic factor, ethno-confessional factor, geographical determinism, historical autochthonism, ethnic ecology.

Insoniyat o'z taraqqiyotining yuqori pog'onasiga ko'tarilgani sari, moddiy madaniyat masalasini o'rghanish yanada dolzarb tus olmoqda. Bugungi kunda turli xalqlarning ovqatlanish madaniyati va an'alarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rghanish tarix, etnologiya va ijtimoiy antropologiya fanlarining eng muhim masalalaridan biri hisoblanmoqda. Ushbu fanlarning taraqqiyoti – insonlarning

ovqatlanish an'analari yoki madaniyati bo'yicha xilma-xil qarashlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli bo'yicha yangi nazariy-metodologik yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib keldi.

Etnologiyada ovqatlanish yoki taomlanish tushunchasi ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslik, etnik an'ana, xalqlar moddiy madaniyatining eng asosiy tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi. Ovqatlanish madaniyati asrlar davomida shakllanib, har bir xalq hayotining tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liqlikda, milliy an'analarni o'zida mujassam etgan holda taraqqiy qiladi. Qolaversa, aynan ovqatlanish madaniyatida xalqlarning milliy o'ziga xosligi ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini o'rganishda etnografik yondashuv oshpazlik yoki dietologiyadan farq qiladi. Hozirgi kunda sohaga oid mutaxasislar va tadqiqotchilarini ovqat tayyorlash texnologiyasi yoki uning ozuqaviy qiymati emas, balki taomlarning odamlar o'rtasidagi munosabat va ijtimoiy hayotiga ta'siri masalalari ko'proq qiziqtiradi. Shuningdek, kishilarning nima yeishi va qanday ovqatlanishi emas, balki dasturxon atrofida qanday o'tirish, qaysi idishlarda ovqatlanishni afzal ko'rishi hamda ulardan qanday foydalanishlari muhim hisoblanadi.



Har qanday taom xoh oilaviy tushlik bo'lsin, xoh marosimiy yoki sayohatchilarning tushliklari bo'lsin, jarayon shunchaki qorin to'yg'azish emas. Yoki bo'lmasa bu jarayon ramziy mazmunga ega bo'lgan harakat – bu ma'lum bir etnik guruh uchun an'anaviy bo'lgan axloqiy va estetik xulq-atvor me'yorlarini qabul qiladi hamda qaysi madaniy jamoaga mansubligini ham ko'rsatadi. Taom uchun asosiy mahsulotlar, idish turlari, ba'zi qo'shimcha komponentlarning mavjudligi (ziravorlar, oshko'klar), ovqatni qayta ishslash, tayyorlash, oziq-ovqat cheklovleri va preferensiya(afzallik)lar, ovqatni iste'mol qilish bilan bog'liq xatti-harakatlar qoidalari hamda bиргаликда ovqatlanish tizimini tashkil qiladi. Shu tufayli, azaldan oziq-ovqat bilan bog'liq u yoki bu hodisalarini tarixiy va madaniy jihatdan nazariy o'rganish dolzarbdir.

Oziq-ovqat mahsulotlarini moddiy madaniyat hodisasi sifatida ma'lum mintaqa misolida o'rganish, an'anaviy madaniyat elementlarining umumiyligi geografiyasini tadqiq etish g'oyat muhim masala hisoblanadi. An'anaviy taomlar va ovqatlanish madaniyatining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda rivojlanishiga

tarixiy, diniy, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir qilganligini aytib o'tish joiz.



ham qadimgi etnik guruhlarga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, yerli tubjoy xalqlar va tevarak-atrofdan ko'chib kelgan xalqlar har xil nisbatda o'z aksini topgan, degan g'oyalar tashkil etadi. Demak,

An'anaviy ovqatlanish madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri tarixiy omil hisoblanadi. XX asrning 40-yillarida obyektiv tarixiy jarayonlar tufayli zamon talabiga mos ilmiy konsepsiya ishlab chiqildi [1]. Bu milliy avtoxtonizm konsepsiyasi deb atalib, O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi muammolari yechimiga nazariy va ilmiy metodologik asoslangan edi. Shuningdek, yangi ilmiy yondashuvning konseptual asosi "O'rta Osiyoning har bir xalqi hozirda yashab turgan hududlari bilan azaldan bog'liqdir" degan qarashdan iborat [2]. Bundan tashqari, hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarining birontasi

Movarounnahr va qadimgi Xorazm hududlari vatani bo'lgan o'zbek xalqining ilk ajdodlari ikki til – turkiy va eroniy tillar turkumidagi qabila va elatlар bo'lgan. Ular uzoq asrlar davomida bir hududda aralashib, qo'nishni va quda-anda bo'lib yashaganlar, ularning qorishuvi jarayonida o'zbek xalqi



shakllangan. O‘zbek xalqi ikki xil tillarda so‘zlashuvchi ajdodlardan, ya’ni ikki til sohiblari bo‘lgan etnik birliklardan tarkib topgan [3].

Ushbu konsepsiya Xorazm o‘zbeklari an’anaviy ovqatlanishini tahlil qilish jarayonida voha oshxonasiagi taomlar va oziq-ovqat nomlarining ko‘p qismi umumturkiy va eroniy tillarga mansub ekanligidan dalolat beradi. Xususan, umumturkiy tildagi: cho‘rak, go‘ja, talqon, qaymaq, atala, chalpak, ko‘mach, qayish, bo‘g‘irsoq, go‘mma, po‘sсиq, qatlama, do‘g‘rama, qovurdoq, qarma, bulamiq, yorma, dimlama, qatirmach, sariyog‘, qaq baliq, sutli go‘ja; fors-tojik tilidan o‘zlashgan: non, somsa, palov, sho‘rva, yaxna, mashava, barak, chakida, kadi sho‘rva, kadi barakva boshqa bir qator taom va ozuqa mahsulotlari nomlari kirishi aniqlandi.

Dunyo xalqlarining oziq-ovqat mahsulotlari, taomlarni afzal ko‘rish an’analari yoki aksincha, ovqat cheklovi va taqiqlar, taomlarni tashkil qilish shakllari, uni tayyorlash bilan bog‘liq an’ana va marosimlarni esa etnik va diniy omillarning chambarchasligida ko‘rish mumkin. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarining etnik o‘ziga xosligi moddiy madaniyatning boshqa sohalari, kiyim-kechak va turar-joylarga qaraganda ancha barqaror hamda uzoq vaqt saqlanib qolishi diniy-etnik xususiyatlarga ko‘ra xarakterlidir.

Xorazm vohasi aholisi hayotida ovqatlanish bilan bog‘liq o‘ziga xos etiket va asriy an’analar mavjudki, ularning shakllanishi hamda taraqqiy qilishida albatta etnik va diniy omillar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, o‘rganilayotgan mavzuda iste’moldagi taomning halol bo‘lishi, taomdan oldin ham keyin ham qo‘l yuvdirilishi, taomni o‘ng qo‘l bilan iste’mol qilish, taom ustida janjallahmaslik va boshqa jihatlar tahlilga tortilgan.

Mavzuni yoritish jarayonida an’anaviy ovqatlanish madaniyatiga geografik omil ham katta ta’sir ko‘rsatib, unda geografik determinizm nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Geografik determinizm g‘oyasiga ko‘ra, tabiiy sharoitlar ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiradi, turki beradi va ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4]. Tabiiy geografik muhit ovqatlanish madaniyatini rivojlantirishda dastlabki asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi hisoblanadi [5].

Asrlar davomida odamlar ma’lum tabiiy sharoitlarda yashab, tabiat qanday in’om bergen bo‘lsa, shuni iste’mol qilishgan va bu holat sanoatning jadal rivojlanishi davrigacha davom etdi. Qolaversa, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari keskinlashib borayotgan hozirgi kunda oziq-ovqat tizimining adaptiv ahamiyati va uning dinamikasi xususiyatlarini baholash, ayniqsa, muhimdir. Shundan “Insonning qandayligi uning nima yeyishi bilan bog‘liq” iborasi kelib chiqqan [6]. Tana uning uzluksiz ishlashini ta’minlaydigan tegishli biokimyoviy va fiziologik mexanizmlarni ishlab chiqdi. Organizmning bunday tabiiy muhitga moslashishi insoniyat uchun og‘ir sharoitlarda ham omon qolishini ta’miladi. Bu esa, asta-sekin, avloddan-avlodga o‘tib, inson organizmi ma’lum bir oziq-ovqat turiga o‘rganib qolishini ko‘rsatdi.



Ovqatlanish madaniyati taraqqiyotidagi keyingi o‘zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasida yuzaga keladi va uning transformatsiyasiga ta’sir etadi. Ayniqsa, Xorazm vohasi hududida yangi etnik guruhlarning (slavyan xalqlari, Kavkazliklar, Volgabo‘yi va Ural atroflari xalqlari) kelib o‘rnashishi, chet davlatlar bilan olib borilgan o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarning yanada rivojlanganligi bois turli eron va afg‘on shirinliklari, yevropa xalqlariga (rus, nemis va fransuz) xos bo‘lgan ekin va sabzavot turlarining kirib kelishi va buning natijasida voha taomnomasida o‘zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, Xorazm vohasiga yangi ozuqa mahsulotlarining (baqlajon, bulg‘or qalampiri, qovoqchalar, kartoshka, pomidor, rediska, sarsabil, gulkaram, sitrus mevalar) hamda yangi turdag'i idish-tovoqlar va oshxona asbob-anjomlarining (samovar, kastryul, manti-qasqon, elektr choynak, blender, isitkich, go‘sht qiymalagich, sharbat chiqaruvchi turli vositalar, xamir va sabzavotlarni kesuvchi, maydalovchi turli xil moslamalar va boshqalar) kirib kelishi, yangicha usullarda ovqat tayyorlashning (tez pishirish, dimlab pishirish, bug‘da pishirish) paydo bo‘lishi kabi jarayonlar an’naviy ovqatlanish tizimining transformatsiyalashuviga olib keldi.

Shu bilan birga, XX asrning 70-80-yillariga kelib, paxta yakka hokimligiga asoslangan siyosat asosida o‘lka dalalarida bug‘doy, jo‘xori va turli xil sabzavotlarning ekilmagani, katta-katta bog‘lar yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lgan [7]. Natijada, Xorazmning an’naviy pazandachiligidida go‘ja, ildirma, bulamiq, atala, shivit oshi, juyan kurdik, uzman va boshqa an’naviy taomlar kam tayyorlanilgan, oshko‘k va boshqa shifobaxsh giyohlardan foydalanish imkoniyati ham yo‘qola boshlagan.

XXI asr boshlariga kelib ijtimoiy ovqatlanish va oilaviy ovqatlanish jarayonlariga dunyo oshxonasing deyarli barcha mashhur taomlari kirib kelganligi fikrimiz dalilidir. Bugungi kunda asrlar davomida voha aholisi tomonidan iste’mol qilib kelingan an’naviy taom turlari, ovqatlanish an’analari kamayib, ularning o‘rnini zamonaviy va ilgari bo‘limgan zamonaviy uslub, an’ana hamda odatlar egallamoqda. Ayniqsa, ovqatlanish shaxobchalari, kafe va restoranlarda turk, uyg‘ur, tatar, rus, eron va dunyoning ko‘pgina boshqa xalqlari oshxonasiga xos bo‘lgan milliy va yevropa taomlarini iste’mol qilish ham mumkin.

Hozirda Xorazm vohasi an’naviy oshxonasiga turli xil ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida transformatsion jarayonlar vujudga kelgan va buning natijasida

kundalik oilaviy ovqatlanishda ham iste'moldagi taomlar tanlovi qadimdagidek sharoit va imkoniyatga bog'liq emas, balki oila a'zolarining xohish va istaklariga asoslanilmoqda. Shu bilan birga, bulomiq, atala, ijjon, juyan kurdik, g'ulpa so'msa, olapo'ta go'mma, paqlama, qushtili kabi taom va shirinliklar, ularning an'anaviy tayyorlanish uslublarining unutilib, yo'qolib borayotgan bo'lsa, yumurta barak, shivit oshi kabi taomlarni pishirish asosan aziz mehmonlar sharafiga yoki ko'proq xorijiy sayyohlar uchun tayyorlanmoqda.

Xorazm vohasi aholisi shevalarida qo'llaniladigan taom nomlari o'zgarganligini bilish maqsadida ularni umumturkiy, fors-tojik, arab, uyg'ur va rus tilidagi taom nomlari bilan qiyoslandi hamda ularning asrlar davomida takomillashib, boshqa tillarning samarali ta'siri natijasida sodir bo'lganligini aniqlandi.

Xorazm shevasidagi taom nomlarining asosiy qismi umumturkiy va fors-tojik tillariga mansub ekanligi, ular tarixiy va yozma manbalarda ham tilga olingani, bugungi o'zbek adabiy tili lug'ati va lahjalarida deyarli uchramasligi dala etnografik materiallari asosida dalillandi. Shuningdek, yillar mobaynida vohaga rus, tojik, ukrain, kavkaz, tatar, qozoq, uyg'ur va boshqa xalqlar taomlarining kirib kelishi, yangi taomlarning kashf etilishi hamda taom nomlari terminalogiyasining yanada boyishiga olib kelgan [8].

Alohida ta'kidlash lozimki, tabiiy omilning ovqatlanish madaniyati rivojidagi rolini inkor etmagan holda, geografik determinizm tamoyili bir tomonlama nazariy yondashuvga asoslangan ayrim uslubiy nuqsonlardan ham holi emasligini ta'kidlab o'tish zarur. Xususan, deterministlar faqatgina tabiatning insonga ta'sirini hisobga olishgan, ammo insonning ham tabiatga aks ta'sir etib, o'zi uchun yangi sharoitlar yaratish maqsadida uni o'zgartirib yuborishini inobatga olmaganlar. Xususan, T.I.Alekseyeva monokulturalarning hamma joyda bo'lishi o'simliklarning turli kasalliklarining keskin o'sishiga olib kelishi, bu esa zararkunandalarga qarshi kurashni qiyinlashtirishini ta'kidlaydi [9]. To'g'ri, hosildorlikni oshirish talab qilinadigan sharoitda, tuproqqa qo'llaniladigan kimyoviy o'g'itlar miqdorini doimiy ravishda ko'paytirish orqali bunga erishish oson, lekin bu olingan mahsulot tarkibi va sifatini pasaytiradi.

Ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan, ba'zi oziq moddalar tanlanishi qanday sodir bo'lganligini, ularni qayta ishslash va iste'mol qilish usullarini bilish muhimdir. Bunday tadqiqotlarning natijalari turli mintaqalarda aholining yashash va ovqatlanish sharoitlarini retrospektiv (har tomonlama) tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, uzoq umr ko'rish fenomeni (hodisa)ning eng muhim komponenti ovqatlanish tizimi bo'lib, boshqa sabablar bilan birga, odamlar va tabiat o'rtasidagi ba'zi ekologik munosabatlarning natijasi bo'lishi mumkin.

Bu borada V.I.Kozlovning etnik ekologiya haqidagi "etnik ekologiya – bu etnografiya va inson ekologiyasi tutashgan joyda joylashgan hamda etnik

geografiya, etnik antropologiya va etnik demografiya bilan bir-biriga o‘xshash zonalarga ega bo‘lgan ilmiy fandir” degan fikrlari ahamiyatlidir [10]. V.I.Kozlov etnik guruhlar va ular yashashgan muhitning tabiiy va ijtimoiy-madaniy sharoitida an’anaviy hayotni qo‘llab-quvvatlash tizimlarining xususiyatlari hamda mavjud ekologik munosabatlarning inson salomatligiga ta’sirini o‘rganishga e’tiborini qaratgan. Ayniqsa, etnik guruhlarning tabiiy muhitdan foydalanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari va ularning ushbu muhitga ta’siri, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish an’analari, etnoekotizimning shakllanishi va ishslash qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat ekanligini ta’kidlagan.

Tadqiqot natijalari. Biz quyida an’anaviy oziq-ovqat tizimlarining ayrim qismlari, xususan, etnik ekologiya konsepsiysi nuqtayi nazaridan tahlil qilish mumkin bo‘lgan jihatlarini Xorazm misolida ko‘rib chiqib, quyidagilarni tahlil sifatida ko‘rsatishimiz mumkin:

Qishloq aholisining kundalik taomlarini tayyorlash vazifasini bajaradigan ayollar uy bekasi sifatida oiladagi bolalar va qariyalarning yoshiga mos ovqatlanishiga mas’ul shaxs hisoblanadilar. Taom tayyorlash va an’anaviy ovqatlanish madaniyatini keyingi avlodlarga o‘tkazish, qizlar hamda kelinlarni uy ishlariga o‘rgatishda ham bu ayollarning xizmati katta.

Ijtimoiy so‘rovnoma jarayonida ayollarning ko‘pchiligi o‘rta va keksa yoshli ayollardan iborat bo‘lsa ham, oilada keksa yoshli buvisidan juda ko‘p narsalarni erta o‘rgangan ba’zi yosh qizlar ham nafaqat oila uchun kundalik ovqat tayyorlashi, balki yakka tartibda non xamirini qorish va yopishi, meva va sabzavotlardan konserva qilish, qoqi qilish va taomlanish bilan bog‘liq an’analarni yaxshi bilishining guvohi bo‘lindi.

Bir so‘z bilan aytganda, an’anaviy taomlar, bir tomondan, mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida, boshqa tomondan, atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik munosabatlarni aks ettiradi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati, tarkibi va ba’zida miqdori ko‘p jihatdan bu munosabatlar qanchalik uyg‘unligiga bog‘liq va bu, o‘z navbatida, odamlarning sog‘lig‘iga bevosita ta’sir qiladi.

Antropolog va etnograflarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy oziq-ovqat turli xalqlarning hayoti, yashash tarzi va madaniyatining o‘ziga xos hamda konservativ qismidir. Bu ota-bobolarining etnik hududida yashovchi xalqlarga, shuningdek, majburan yoki ixtiyoriy ravishda ko‘chib ketgan va boshqa etnik muhitda yashaydigan xalqlarga ham tegishlidir. Oziq-ovqat turlari, uni tayyorlash usullari va oziq-ovqat rejimi doimiy madaniy va kundalik an’analardan biri sanaladi. Yangi muhitda yashayotgan muhojirlar kiyimlari, tillarini tez o‘zgartirishlari mumkin, lekin ovqatlanish tartibi va an’analarini qat’iy saqlaydilar. Buni xorijiy va mahalliy tadqiqotlar ishonchli tarzda isbotlaydi.

Umuman olganda, tarixiy va etnografik tadqiqotlarni o‘rganar ekanmiz, avvalo uni o‘rganishda nazariy-uslubiy jihatlariga tayangan holda ilmiy xulosalar qilishga e’tibor qaratildi. Xususan, evolyutsionizm, diffuzionizm, strukturualizm,

geografik determinizm tizimli yondashuvlar asosida tadqiqotning nazariy jihatlari tahlil qilindi, uning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar asoslandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ. 1947, № VI-VII. – С. 304.

\* Миллий автохтонизм концепцияси – маданиятларнинг шаклланишида факатгина тубжой аҳолиси эмас, кўчиб келган халқларнинг ҳам аралашган маданиятига айтилади.

2. Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. – Ташкент: УзФАН, 1941.

3. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – Б. 57-58.

4. Давлатова С.Т. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида). – Тошкент: YANGI NASHR, 2018. – Б. 16.

5. Давлатова С.Т. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида... – Б. 16.

6. Григулевич Н.И. Питание как важнейший механизм этноэкологической адаптации // Традиционная пища как выражение этнического самосознания. – М.: Наука, 2001. – С. 147.

7. Дўсчонов Б. Хоразм таомлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б.

8. Худаярова М.Т. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили... – Б. 35-41.

9. Алексеева Т.И . Антропоэкологическое изучение различных районов мира // Проблемы экологии человека. – М., 1986. – С. 195.

10. Козлов В.И. Иммигранты и этнорасовые проблемы в Британии. – М., 1987. – С. 121.

TARIX
**ZAMONAVIY MANGUBERDISHUNOSLIK HAQIDA  
AYRIM MULOHAZALAR**
**Ikrom****HOSHIMJONOV**

Qozog'iston o'zbeklari etnomadaniy birlashmalari "Do'stlik" hamjamiyati raisi

**Sholpan****ARZIMBETOVA**

Qozog'iston Respublikasi Jumabek Tashenev nomli universitet Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorekтори, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**UO'K 574.510**

**Annotatsiya:** mazkur maqolada zamonaviy manguberdishunoslik oldida turgan dolzarb masalalarining Qozog'istonda o'r ganilishiga oid ayrim mulohazalar haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** в статье рассматриваются некоторые соображения относительно изучения актуальных проблем, стоящих перед современным мангаберразнообразием в Казахстане.

**Annotation:** this article discusses some considerations regarding the study of topical issues facing modern mangaberdiversity in Kazakhstan.

**Kalit so'zlar:** O'tror, vatan, kurash, Manguberdi, milliy o'zlik, tarixiy hodisa.

**Ключевые слова:** Отрап, родина, борьба, Мангуберди, национальная идентичность, историческое событие.

**The keywords:** Otrar, homeland, struggle, Manguberdi, national identity, historical event.

Aslida tarix faqat o'tmish saboqlaridangina iborat emas. Uning asrlar to'poni bosib qolgan bilinar – bilinmas izlarini o'qiy olsak, uning juda ko'p jihatdan kelajakning tasviri ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Dunyo tamaddunida yorug' iz qoldirgan ajdodlarning saboqlarini unutmagan, ulardan to'g'ri xulosalar chiqargan avlod kelajak tasvirida hech qachon adashmaydi.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan qardosh O'zbekiston taraqqiyotning yangi davrini olamshumul ilmiy-ma'rifiy kashfiyotlar bilan boshladi. Shunday tadqiqotlardan biri – tarixchi olim, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Bekzod Abdirimovning "Xorazmiylar izini izlab..." kitobidir. Risolaning so'z boshida aytiganidek, "Ushbu kitobda nafaqat yurtimiz, balki butun dunyoga tarqalgan xorazmliklarning besh asrlik tarixi, ajdodlarimizning Buyuk Ipak yo'li bo'y lab Xazariya va Bulg'orda, undan o'tib Vengriya hududlarida savdo-sotiq ishlarini olib borishlari, Vengriya ijtimoiy-iqtisodiy

hayoti, siyosatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgani bayon qilinadi. Buni esa Markaziy Osiyoda Birinchi Renessans davrida taraqqiy etgan ilm-fan natijasi sifatida ko‘rishimiz mumkin”.

Milliy o‘zlikni anglashning asosiy tamoyillari qatorida millat vakillarining o‘z millati tarixi, merosi, urf-odati, an’ana va qadriyatlariga munosabatlari, ularni qay darajada o‘zlashtirib, o‘z taraqqiyotlarida foydalanishga bo‘lgan intilishlarida ham o‘z ifodasini topadi. Vatanga sadoqat millatni asrashning muhim omili va mustahkam qo‘rg‘onidir. Darhaqiqat, uch ming yillik davlatchilik an’analariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchilik tarixi alohida o‘rin tutadi. Hozirgi davrda dunyo yangilanmoqda, tarix haqiqatlari tiklanmoqda. Yosh olim B.Abdirimovning izlanishlari tarix haqiqatini tiklash barobarida buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi harbiy-siyosiy faoliyatini o‘rganish borasida yangi sahifa ochdi. Zero, dunyo hamjamiyatidagi yangicha munosabatlar nafaqat xalqlar hayotida, balki tafakkurida ham juda katta o‘zgarishlar yasamoqda.



yuksak bilim, mas’uliyat va fidoyilik talab qiladi.

Ma’naviy merosga hurmat insonlarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari asosida shakllanib, sayqallanib boradi. Millatlarning ma’rifiy-madaniy aloqalari qadriyatlarning avlodlardan avlodlarga o‘tishi va boyib borishi jarayonida rivojlanadi, xalqaro miqyosga chiqadi. Keyingi yuz yilliklar davrida jamiyatning shiddat bilan taraqqiy etishi inson tafakkuriga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Inson bolasining ezgulikka intilishi, avvalo uning o‘z vatani tarixini,

Tarixga munosabat insoniyat tafakkuri taraqqiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishida, jahon iqtisodiy, ijtimoiy-ma’rifiy hayoti integratsiyalashuvining tezlashishida, fan-texnika va boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlarning jahon xalqlarining mulkiga aylanishida yanada yorqinroq namoyon bo‘lmoqda. O‘tmish qa’rida qanchadan qancha qadimiy shaharlar, sharqona harbiy ilm sirlari, bir vaqtlar inson ong-u shuuriga tafakkur va estetik zavq, ruhiyatiga kuch-quvvat, mardonialik baxsh etgan kashfiyotlarning nurli izlari yashirinib yotibdi. Buyuk sarkarda, millat qahramoni Jaloliddin Manguberdining butun dunyo bo‘ylab sochilib ketgan izlarini topish, aniqlash va birlashtirish bugunning olimlaridan katta iste’dod,

milliy qadriyatlarini bilishi, undan faxrlanib yashashida namoyon bo‘ladi. Tarixni o‘rganish va anglash – yoshlar qalbida o‘tmishga qiziqish va hurmat, qadim urfatlarga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishda, ularni mafkuraviy tahdidlar va



ommaviy madaniyat ta’siriga qarshi tura oladigan komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlar o‘rtasidagi do‘stona insoniy munosabatlarni o‘rnatish va mustahkamlashda vatan tarixini o‘rganishning ahamiyati beqiyos. Xorazm – o‘zining qadimiylari tarixi va madaniyati, ochiq osmon ostidagi madaniy obidalari, buyuk allomalari, hunarmandchiligi, adabiyot va san’atning barcha turlari qatorida harbiy sarkardalik ilmining rivojlanganligi bilan shuhrat qozongan. Shuning barobarida B. Abdurimov Xorazmiylar tarixi o‘zlarining qadamlari yetgan o‘lkalarning o‘tmishi, asriy an’analari, madaniyati bilan mushtarak rivojlanganligini ilmiy asoslaydi.

Muallifning “Xorazmiylar izini izlab...” risolasi uzoq yillik mashaqqatli mehnatning samarasi. Unda Xorazmiylar davlatchiligi tarixiga oid ko‘plab qo‘lyozma manbalardan foydalanilgan hamda ular haqidagi eng yangi ma’lumotlar jamlangan, havolalar keltirilgan. Xususan, XIII asrning yigirmanchi yillarda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi xalqaro miqyosda kurashgan Jaloliddin Manguberdi faoliyati keng tahlil qilingan. U musulmon davlatlarining eng kuchli sulton, Chingizzon qo‘sishinlarini yenga olgan yagona sarkarda sifatida tan olinganligi tarixiy manbalar bilan ilmiy asoslangan.

Atoqli tarixchi olim, akademik Ziyo Buniyodovning fikricha, “XII asr oxiri va XIII asr boshlaridan musulmon Sharqining eng yirik va eng qudratli davlati Xorazm saltanati edi. Tadqiqotchilar bu davlat tarixiga katta qiziqish bilan qarashining yana bir sababi – Xorazm butun musulmon Sharqida mo‘g‘ul istilochilar hujumini birinchi bo‘lib qaytarishga uringan, qo‘sishinlari son jihatidan mo‘g‘ullarnikidan ustun bo‘lsa ham, (sulton Aloiddin Muhammadning noto‘g‘ri siyosati tufayli) mag‘lubiyatga uchragan, ammo mo‘g‘ul bosqinchilarining eng ko‘p dodini bergen davlat edi. Markaziy Osiyo shaharlari ichida Xorazmning bir qancha shaharlari (O’tror, Xo‘jand, Marv, Urganch, Xiva, Buxoro, Samarqand v.b.) aholisi mo‘g‘ul istilochilariga qarshi juda qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. So‘nggi Xorazmshoh sulton Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ul bosqinchilariga eng

uzoq va mardonavor qarshilik ko‘rsatganligi, dovyuraklik, mardlik kabi shaxsiy fazilati bilan butun musulmon olamida shon-shuhrat qozongan edi”.

Ma’lumki, Markaziy Osiyoda davlat va davlatchilik tarixi minglab yillarni o‘z ichiga oladi, ya’ni miloddan avvalgi ikkinchi ming yilliklarning oxiriga borib taqaladi. B.Abdirimov keng qamrovli olim sifatida Xorazmshohlar sultanatining ilk davrlariga nazar tashlaydi, uning mintaqasi taraqqiyotidagi o‘rniga, buyuk sarkarda va davlat arbobi Jaloliddin Manguberdi jasoratiga alohida e’tibor beradi. Vatan o‘tmishining turli davrlari haqida tarixiy manbalarga asoslanib qiziqarli hikoya qiladi. Olimning ilmiy mushohadalari falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Kitob izchil mantiqiy xulosalar bilan yakunlanadi.

Xorazm – azal-azaldan qadim tamaddun beshiklaridan biri sifatida muazzam qadriyatlarga ega. U o‘z ildizlari bilan uzoq asrlarga tutashgan. Tarix – millat va xalqning hayot falsafasidir. Qadim zamonlardan buyon Buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan Xorazm Sharq bilan G‘arb, Yunon, Rum, Vizantiya, Xitoy, Hindiston va Eron xalqlari o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar ravnaqida muhim ahamiyat kasb etgan. Ming afsuski, ijtimoiy ziddiyatlar, o‘zaro urushlar, turli tabiiy ofatlar natijasida xalq ijodiy mehnati va zakovati bilan ko‘p asrlar davomida yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar ham ilmiy kashfiyotlar, bebafo san’at asarlari kabi birda yo‘qolib, birda qayta tiklanib boravergan. Lekin yo‘qotishlar ko‘proq bo‘lgan va bular tamaddunning haqiqiy tanazzuli edi. Mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan har bir millat uchun madaniy meros va milliy qadriyatlarni asrash eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir. Har bir millat o‘z kelajagiga nazar tashlar ekan, eng avvalo, o‘zining o‘tmishi, tafakkur salohiyatini chamlab ko‘rishi zarur.

Qozog‘iston Respublikasi, Sayram tumani, Qorabuloq qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan taniqli ijodkor Sunnatilla Akramovning fikricha, Janubiy Qozog‘istonning “mashhur Iqon qishlog‘i aholisining ko‘pchilik qismi shevasida Xorazm shevasi elementlari saqlangan. Ularga tez-tez “xorazmlikmisiz?”, degan savolni berishadi. Atoqli tilshunos olimlar K.Yudaxin va F.Abdullayevlar Iqon-Qorabuloq shevalarining Xorazm shevasiga yaqinligini ta’kidlashgan. Bu qadimiylar qishloqda turkiy so‘zlar yaxshi saqlanib qolgan, fors-tojik, arab tillaridan kirgan atamalar kam uchraydi. Bizning ota-bobolarimiz O‘tror shahrini Xorazmshohlarga aloqador ekanligi haqida ko‘p gapirishardi. Qadim Ipak yo‘lida joylashgan to‘rt darvozali mazkur shahar aholisining asosiy qismi xorazmliklar bo‘lgan. Janubiy Qozog‘istonlik o‘zbeklarning bir qismi xorazmliklar ekanligi tarixiy manbalardan ayon. Bu faktning o‘ziyoq Xorazmiylar izi yetmagan joy yo‘q, degani bo‘lsa ajab emas”.

Ma’naviy yetuklikning eng muhim jihat shundaki, u insonning o‘zini o‘zi anglashida, mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishida, jamiyatdagi nufuzini belgilashda, millatning o‘ziga xos etnik birlik ekanligini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, tarixni o‘rganishga ehtiyoj ham insonlarning

o‘zaro munosabatlarida, uning hayotiy tajribalari davomida shakllanadi. Muhammadrizo o‘g‘li To‘xtash Mamayevning “Iqon va iqonliklar” kitobining “Iqon shevasi” bo‘limida shunday satrlarga duch kelamiz: “Qishloqning paydo bo‘lishidagi rivoyatlarga va urug‘lar haqidagi hikoyatlarga nazar solsak, qishloqda yangidan inson yaralmagan, faqat ular har taraflardan biron sabab bilan qishloqqa kelib yashab qolganlar. Shulardan, eng avvalo, Xorazm qishloqlaridan kelganlar, ular son jihatidan ko‘p bo‘lganligi haqida har xil rivoyatlar mavjud. Iqonliklarning o‘ziga xos so‘zlashuv tilida, ya’ni shevasida xorazmliklarning tili qattiq o‘rin egallagan. Shuning uchun ham asosiy so‘zlashuv tili o‘zbek tilining Xorazm shevasiga borib taqaladi. Bu borada taniqli tilshunos olimlar Iqon va Qorabuloq shevalarining Xorazm tiliga o‘xshashligini ta’kidlashgan”. Shuningdek, mazkur risolada Iqonning eng qadimiy urug‘larining ildizlari xorazmliklarga borib tutashishi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi.

Qozog‘istondagi ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinf “Tarix” darsligida “O‘tror fojiasi” sarlavhasi ostida yarim sahifalik ma’lumot berilgan. O‘sib kelayotgan yosh avlod bahodir sarkarda Jaloliddinshohning yurt ozodligi uchun olib borgan kurashini mukammal o‘rganishlari uchun mavjud materiallar kamlik qiladi. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchisiga, bir tarixiy bosqichdan boshqasiga o‘tishi o‘ziga xos ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar to‘qnashuviga duch keladi. Mazkur to‘qnashuvlarda yengilmaslik uchun ham yoshlari millat tarixini o‘rganishlari, tahlil va tadqiq qila olishlari zarur. Bu fikrlar keljakda Xorazmiy shohlar va buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi nomi bilan bog‘liq yangi tarixlar Janubiy Qozog‘istonda ham o‘z tadqiqini kutib turganidan darak beradi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. Yoshlar - bizning kelajagimiz. Yoshlarga donolar o‘giti. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Shahobiddin Muhammad al-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. T.: 1999.
4. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
5. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2015.
6. Abdirimov B. Xorazmiylar izini izlab... T.: “Sharq ma’rifati nashr – matbaa uyi”, 2021.

**TARIX****XORAZMSHOH-ANUSHTEGENIYLAR DAVLATINING  
BUYUK IPAQ YO'LIDA TUTGAN O'RNI****UO'K: 94:355(575.1)**

**Qudrat  
MASHARIPOV**

**Urganch davlat  
universiteti  
dotsenti, tarix  
fanlari doktori  
(DSc).**



*Annotatsiya:* Xorazm vohasi qadimdan Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmoqlaridan biri sifatida mintaqalararo savdo munosabatlari juda muhim o'rinn egallagan. Ammo bu masala muayyan xronologik doirada, ya'ni Xorazm vohasining turli davrlardagi savdo munosabatlari alohida davrlar misolida tadqiq qilishni taqozo qiladi. Shu jihatdan olganda mazkur maqolada xorazmshoh – anushteginiyar davrida Xorazmning tashqi iqtisodiy aloqalari, savdo yo'llari yo'nalishlari va olib chiqilgan yoki olib kelingan mahsulotlar masalasini ochib berishga harakat qilingan.

*Аннотация:* Хорезмский оазис издавна занимал очень важное место в межрегиональных торговых отношениях как одна из главных ветвей Великого Шелкового пути. Однако этот вопрос требует исследований в определенных хронологических рамках, то есть торговых отношений Хорезмийского оазиса в разные периоды на примере отдельных периодов. В связи с этим в данной статье предпринята попытка раскрыть вопрос о внешнеэкономических связях Хорезма периода хорезмишахов-ануштегинидов и об направлениях торговых путей, вывозимые или привозимые товарами.

*Annotation:* The Khorezm oasis has long occupied a very important place in interregional trade relations as one of the main branches of the Great Silk Road. However, this issue requires research within a certain chronological framework, that is, trade relations of the Khorezmian oasis in different periods on the example of individual periods. In this regard, this article attempts to reveal the issue of foreign economic relations of Khorezm in the period of the Khorezmshahs-Amushteginids and the directions of trade routes, export or import of goods.

*Kalit so'zlar:* Xorazmshoh-anushteginiyarlar, Gurganch, Mizdahqon, Jigarband, Ardashumisan, Yoqut al-Xamaviy, Qazviniy, Sharqiy Yevropa, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston, Xitoy.


**Ключевые слова:** Хорезмишихи-ануштегиниды, Гургендж, Миздахкан, Джигербент, Ардахумисан, Якут ал-Хамави, Казвини, Восточная Европа, Ближний и Средний Восток, Индия, Китай.

**The keywords:** Khorezmshahs-Amushteginids, Gurganj, Mizdaqkan, Jigerbent, Ardashumisan, Yakut al-Hamavi, Kazvini, Eastern Europe, the Near and Middle East, India, China.

XIII asr boshiga kelib, ya'ni anushteginiyar sulolasi so'nggi buyuk hukmdori Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida Xorazmshohlar davlatiga

27 yirik viloyat bo‘ysundirilish, hududlari nihoyatda kengayib, g‘arbda Iroqdan sharqda Hindistongacha, shimolda Orol dengizidan janubda Hind okeanigacha cho‘zilib ketgan edi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi, tabiiy ravishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ijobiy o‘zgarishlar sodir etilishiga sabab bo‘lishi aniq edi. Shu sababli arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga ko‘ra, sun’iy sug‘orishga katta e’tibor berilib, vohalar imkonidan, iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilik rivojlanishida uzilish bo‘laman.

Shaharlar taraqqiy qilib, savdo-sotiq, hunarmandchilik g‘oyatda rivojlangan. O‘lkada ishlab chiqarilgan turli xildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar, gilam-poyondoz, teri, jun, yog‘-moy, sovun, quroslasha, egar-jabdug‘lar, ho‘l meva, quruq meva, ipakliklar, javohirlar va boshqa ko‘plab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda xaridorgir edi. Arxeologik tadqiqotlar davomida Xorazmshohlar shahar-yodgorliklaridan turli xil hunarmandchilik mahsuloti qoldiqlari, butun-butun hunarmandchilik mahallalari – kulolchilik, degrezlik, misgarlik, temirchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik, shishagarlik va shu kabi mahallalari topildi. Manbalarda hunarmandchilikning 50 ga yaqin turi rivojlanganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga xorazmshohlar davlatiga bu davrlarda chetdan keltirilgan turli mahsulotlarning ko‘plab topilishi, Xorazmning Sharq davlatlari bilan savdo munosabatlarining rivojlanganligini ko‘rsatadi.




Xorazmshohlar – anushteginiylar davlatining tashqi savdo munosabatlari tarixiga oid tadqiqotlar nihoyatda kam. Faqat yozma manbalarda jumladan, As-Saolibiy, an-Nasaviy, Ibn al-Asir, as-Sam’oni, Yoqut al-Hamaviy, Juvayniy, Rashididdin va Juzjonyi kabi tarixchilar asarlarida qisman ma'lumotlar mavjud bo‘lib, ular ham alohida mavzu sifatida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda, eng avvalo, mazkur manbalarni chuqur ilmiy tahlil qilish zarur.

Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan ilmiy tadqiqotlar deyarli yo‘q. Zamonaviy tadqiqotchilarining ko‘pchiligi xorazmshohlar mavzusi bilan

bog‘liq voqealarda jarayonlarda eslatilgan savdo munosabatlariiga oid yoki muayyan mahsulotlar, jumladan, Xorazmshohlar – anushteginiyilar davlati tarkibiga kirmagan hududlardan keltirilgan buyumlar haqidagi ma’lumotlarni ilmiy tahlil qilmasdan keltirib o’tish bilan cheklanadilar, xolos. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha yuqoridagi yozma manbalar eng asosiy manbalar hamda xorazmshoh – anushteginiyilar tarixi, savdo munosabatlari haqida ko‘proq to‘xtalib o’tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, N.N.Vakturskaya, O.A.Vishnevskaya, M.G.Vorobyeva, V.N.Yagodin, Z.M.Bunyodov va M.D.Kalmenov tadqiqotlari hisoblanadi. Bundan tashqari ba’zi numizmatikaga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham tashqi hududlarda topilgan anushteginiyilar hukmdorlari eslatiladiki, bu tangalar aynan savdo munosabatlari ta’sirida mazkur hududlarga borib qolgan degan xulosa chiqarishga asoslar bor.

XI-XII asrlardagi siyosiy jarayonlar natijasida, XI asr oxirlarida Xorazmda hokimiyat tepasiga anushteginiyilar sulolasini keldi. Anushteginiyilar hukmdorlari yarim asr davomida kuchli davlatga aylanib, Niso va Dehiston viloyatlarini, Xuroson, Sharqiy Iroq, Movarounnahr, G‘azna, Eron, G‘arbiy Iroq va Ozarbayjon hududlarini bo‘ysundirdilar. Shunday qilib, XIII asr boshiga kelib Xorazmshohlar davlatiga 27 yirik viloyat bo‘ysundirilgan.



Shu o‘rinda Xorazmshoh-anushteginiyilar davri xo‘jalik taraqqiyotining qay darajada bo‘lganligini tasavvur etish uchun, mo‘g‘ul istilosini arafasida (1219-1220-yillarda) Xorazmda bo‘lgan mashhur arab sayyohi Yoqt al-Hamaviy o‘zining geografik qomusi “Mu‘jam al-buldon” (“Mamlakatlar lug‘ati”) asarida Xorazm to‘g‘risida keltirib o’tgan bir fikri keltirib o‘tilsa, kifoya qiladi. U bunday deb yozadi: “Men u yerga 616-yili (1219-1220-yillar) borgan edim, hech qayerda bunday gavjum va yashnagan o‘lkani ko‘rmaganman. Ekinlari yoppasiga parvarish qilingan, qishloqlari bir-biriga yaqin qatorlashib ketgan, alohida hovli-yu chorborg‘lari ko‘p, dashtda ham qo‘ra-yu qo‘rg‘onlar bor. O‘lkaning rustoqlari (dehqonchilik tumanlari)da parvarishlanmagan, obod bo‘limgan joyni topish qiyin. Yashil daraxtorlar, ayniqsa, gujum-u tut ko‘p, chunki ular (aholi) qurilish yog‘ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurtiga yemdir. Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida yurasanmi (aholi ko‘pligi jihatidan) – buning farq yo‘q. Dunyoning hech bir yerida Xorazmdek farovon va aholisi gavjum bo‘lmasa kerak. Xorazmning ko‘pchilik aholi manzillari – bozorlarga, hayotiy zarur narsalarga mo‘l-ko‘l, rastalari ko‘p shaharlardir. Bozori bo‘limgan qishloq kamdan kamdir.

Bularning hammasi umumiylar xavfsizlikda va tinchlik-xotirjamlikda amalga oshmoqda” [1, 419-bet].

Manbalarda Xorazmshoh Takashning xorazmlikmi, begonami, turkmi, xorijlikmi – kimligidan qat’i nazar hammaga bir xil adolatli munosabatda bo‘lish, savdo-sotiq ishlariga to‘sqinlik qilmaslik, yo‘llarda xavfsizlikni ta’minalash, savdogarlarning mol va hayotini turli tajovuz va suiqasdlardan himoya qilish to‘g‘risida farmon chiqarilganligi qayd qilinadi [2, 62-bet]. Ichki savdoning va u bilan bog‘liq holda tashqi savdoning rivojlanishida ichki kanallarda, ayniqsa, Amudaryoda kema qatnovining juda yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi ham katta



ahamiyatga ega bo‘ldi. Manbalarda suv yo‘li quruqlik yo‘liga nisbatan qulay, xavfsiz va eng asosiysi, bu yo‘ldan manzilga quruqlikdagiga nisbatan tez yetib borilganligi ko‘p ta’kidlanadi. Bu davrda tashqi savdoda oldingidek Xitoy, Eron, Volgabo‘yi, Hindiston va Janubiy rus knyazliklari bilan aloqalar davom etgan. Ammo bu davrda avvalgidek faqat Volgabo‘yi va Sharqiy Yevropa bilan emas, balki Xitoy va Mo‘g‘uliston bilan aloqalar ham juda rivojlangan. Mo‘g‘ullarning Xorazm savdogarlarini katta izzat-hurmat va ehtirom bilan qabul qilishlarini, alohida hurmat belgisi sifatida xorazmliklarni oq namatdan chodir qurib kutib olganliklarini o‘scha davr manbalarida ta’kidlanadi [3, 127-bet].

Jumladan, yana shu Yoqut Hamaviy ma'lumotlariga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, Xorazmnинг Sharqiy Yevropa va Janubiy Sibir bilan bo‘ladigan savdo aloqalari ikkita yo‘l bilan amalga oshirilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Uning ma'lumotlarini arxeologik tadqiqotlar ham to‘la tasdiqlab, mazkur ikkita savdo yo‘li quyidagilar: shimoli-sharqiy yo‘nalish Ustyurt orqali o‘tib, Janubi-sharqiy Yevropa hududlarga yo‘nalgan. Ikkinci yo‘l esa, shimoli-g‘arbiy yo‘nalishda bo‘lib, Kaspiy dengizi qirg‘oqlari bo‘ylab, Mang‘ishloq oroligacha borgan. Bu orol orqali esa, Volga daryosiga tushilib, undan Sharqiy va Janubi-sharqiy Yevropa hududlariga, Qora dengizgacha borilgan. Ayniqsa, Mang‘ishloq orqali o‘tadigan savdo yo‘li anushteginiylar davrida juda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu orolda hattoki xorazmlik savdogarlar koloniysi sifatida Qizilqal'a shahri vujudga kelib, dastlab u oddiy savdo manzili darajasida bo‘lib,

anushteginiylar davrida murakkab tuzilishga ega yirik shaharga aylangan [4, 12-bet].

Mang‘ishloq savdo manzilgohlari haqida yuqorida ko‘rsatib o‘tgan Yoqt Hamaviy shunday ma’lumot beradi: “Mang‘ishloq – Xorazm hududlari chekkasidagi juda mustahkam qal’a. Bu shahar Xorazm bilan ruslar mamlakati o‘rtasida, dengiz bo‘yida joylashgan, unga Jayhun daryosi suvlari quyiladi (o‘rta asrlarda Amudaryo suvlari Kaspiy dengiziga quyilgan). Bu Tabariston dengizidir (Kaspiy dengizining o‘rta asrlardagi nomi), Xorazmshoh Otsiz davlat chegaralarini mustahkamlab, Mang‘ishloq orqali o‘tuvchi karvon yo‘llarini o‘z nazorati ostiga olgan” [1, 435-bet].

Haqiqatdan ham boshqa manbalarda ham 1127-yilda Otsiz Sirdaryo quyi oqimida joylashgan Jand atrofidagi ko‘chmanchilarga hamda Mang‘ishloqqa yurish uyushtirib, bu hududlarda o‘z hukmronligini o‘rnatgan. Xullas, Mang‘ishloq oroli Xorazmning Sharqiy Yevropa hududlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarida juda muhim o‘rin tutgan [1, 178-bet].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida xorazmshohlar davri yodgorliklaridan ko‘plab xitoylik ustalar tayyorlagan chinni idishlar parchalarining topilishi ham bu fikrni to‘la tasdiqlaydi. Tashqi va ichki savdo yo‘llari kesishgan joyda va muhim, qulay mavqega ega bo‘lgan xorazmshohlar poytaxti Gurganj (Jurjoniya) bu davrda nafaqat Movarounnahr, balki yalpi o‘rta asrlar Sharqining eng yirik shaharlaridan biriga aylandi. 1219-yilda Gurganjda bo‘lgan Yoqt Hamaviy: “Men Gurganj kabi buyuk, boy va go‘zal shaharni ko‘rmadim”, – deb yozadi [1, 419-bet].

Zakariyo Qazviniy esa Gurganj haqida so‘z yuritar ekan, uni Jayhun daryosi bo‘yidagi juda katta shahar, aholisi juda ko‘p, deb ta’riflaydi va “jannatdagi shaharni va chimildiqdagi kelinchakni qo‘riqlaganday, farishtalar qo‘riqlaydi”, – deb yozgan edi [2, 135-bet].

Gurganjda o‘sha zamonlardagi barcha kasb-hunarlar taraqqiy etgan edi. Yana o‘sha Zakariyo Qazviniyning yozishicha, Gurganjda mohir ustalar, ayniqsa, temirchilar, duradgorlar va boshqa hunar egalari o‘z kasbida barkamol edilar. Gurganj naqqoshlari fil suyagidan va sandal daraxtidan ajoyib naqshlar yasar edilar. Gurganj ayollari chevarlikda mohir edilar, ipakchilar tabiiy ipakning oliv navini yetishtirgan. Binokor-quruvchilar tol og‘ochidan shunday yengil (sinchli) binolar qurar edilarki, bu yerda tez-tez bo‘lib turadigan zilzila paytida tosh va g‘ishtin uylar qulasa ham, sinchli uylarga ziyon yetmas edi. Gurganjda aholi

ko‘pligidan ko‘chalar, bozorlarda odamlar bir-biriga urilar, o‘tish qiyin edi [2, 135-bet].

Gurganj savdogarlari dunyoning ko‘pgina mamlakatlariiga o‘z mollarini



eltib sotar, Gurganjga ham ko‘p xorijiy mamlakatlarning savdogarlari mol olib kelar edilar. Gurganj bozorlarining ko‘pligi, turli-tuman mollarga serobligi bilan ham mashhur edi. Bozorlarda juda qat’iy tartib o‘rnatilgan edi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, savdo-sotiqni muxtasib (nazoratchi) nazorat qilgan. Muxtasiblik lavozimiga ishonchli odamlar yoki imomlar qo‘yilardi.

Gurganj shahridan tashqari, Kat, Shemaxaqal'a, Puljoy (Git), Bug'roxon (Madminiya), Mizdahqon, Kardor kabi shaharlar ham Volgabo'y'i va Sharqiy Yevropa bilan bo'ladigan savdoda katta rol o'ynaganlar. Buni ularning geografik joylashgan o'rniga ko'ra ham, manbalarda eslatilishi bo'yicha ham, arxeologik ma'lumotlar orqali ham ko'rish va bu haqda xulosa chiqarish mumkin.

XII-XIII asrlarda Xorazmning yirik imperiyaga aylanishi bilan, Xorazm savdo shaharlarining Sharqiy Yevropa va Volgabo'y'i hududlari bilan savdo aloqalari yanada kengayib, o'z ta'sir doirasiga yana bir qancha xalqlarni va davlatlarni tortdi. Masalan, Sibirning Sayan-Oltoy tog'oldi hududlari aholisi bo'lmish Xakaslar bilan ham aloqalar o'rnatilganki, bu davlat hududidan topilgan turli-tuman buyumlar, tangalar bu haqda xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Yenisey daryosi bo'yidagi Elegest shaharchasidan, Xemchik daryosi bo'yidan topilgan musulmonlarga oid qabristonlarning topilishi bu xududlarda musulmon savdogarlari (ular orasida xorazmliklarning bo'lishi tabiiy) manzilgohlari bo'lganligini ko'rsatadi [5, 201-206-betlar].

Shimoliy Kavkazdag'i alan qabilalari, Janubiy Uralning boshqird qabilalari bilan ham savdo-sotiq munosabatlari juda faollashgan. Bu hududlardan ham Xorazmda ishlab chiqarilgan yoki Xorazm orqali olib o'tilgan Sharq mahsulotlari topilgan. Buni o'rta asr manbalari ham tasdiqlaydi. Sibir va Janubiy Ural hududlaridan, asosan, xuddi Volga Bulg'oriyasi bilan bo'lgan savdodagi kabi, ko'proq turli xildagi mo'ynalar, muskus, mamont suyaklari, lochin va teri keltirilgan [5, 204-bet; 6, 222-224-betlar].

XII-XIII asrlarda Rus Xorazmga va u orqali butun Sharqqa mo'yna, mum, asal, smola, zig'ir va zig'ir tola gazlamalar, qurollar va ishlov berilgan suyaklar chiqargan. Rus bilan bo'ladigan asosiy savdo, asosan, Volga daryosi bo'ylab olib borilgan.

Rus savdogarlari Volgadan kemalarda kelib, Kaspiy dengizidan janubi-Sharq tomon kesib o'tib, Mang'ishloq pristanlariga kelganlar. Undan so'ng tuyalarda Ustyurtni kesib o'tib, Urganchga va Xorazmning boshqa savdo shaharlariga o'z mollarini olib borganlar [7, 89-bet].

Rus bilan bo'ladigan savdoda asosiy rolni Urganch shahri o'ynagan. Bundan tashqari, Xorazmning Puljoy, Mizdahqon, Kat, Shemaxaqal'a, Xiva va shu kabi boshqa shaharlari ham Rus shaharlari bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yganlar [7, 89-90-bet].

Xorazmning Yevropa bilan savdo munosabatlariga oid ma'lumotlar kam uchrasa-da, Markaziy Osiyo savdogarlari (samarqandliklar) hatto olis Andalusiya (Ispaniya)ga borib savdo qilganlarining o'ziyoq Xorazmning ham bu savdoda qatnashganligini ko'rsatadi. Chunki, IX-X asrlarda tashqi savdo aloqalarida xorazmliklar Markaziy Osiyoda faqat so'g'dliklardan keyingi o'rinni egallagan



bo'lsa, XII-XIII asrlarda esa hatto xorazmlik savdogarlar birinchi darajali o'ringa chiqib ham oldilar. Xususan, Yevropa bilan bo'ladigan savdo X-XV asrlarda, ayniqsa xorazmshoh – anushteginiyalar davrida Yevropaning o'zaro savdosi ham, Sharq bilan bo'ladigan savdosi ham, asosan, ikkita "kesishuv joyi" tevaragida to'plangan edi. Birinchisi – O'rta yer dengizi bo'lib, Yevropa davlatlari bu dengiz orqali, avvalo, Vizantiya bilan va u orqali esa Sharq bilan savdo-sotiq aloqalari olib borganlar. Ikkinchisi – Shimoliy va Boltiq dengizi hududi bo'lib, Sharq bilan bo'ladigan savdoda u ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan [8, 27-bet].

Ammo Boltiqbo'yi va Skandinaviya mamlakatlari topilgan somoniy tangalari (bu tangalar Xorazm orqali olib borilganligi to'liq tasdiqlangan), Pomir tog'oldi hududlaridan topilgan mashhur Boltiq qahrabolari, bu yo'lning ahamiyati yo'q darajada bo'lgan degan tushunchani rad qiladi. Boltiqbo'yi qahrabolari ikki yo'l orqali: Sirdaryo va Amudaryo orqali olib kelingan. Kartografik tadqiqotlar qahrabo tarqalgan ichki yo'llarni aniqlash imkonini berdi. Qahrabo tarqalishining eng uzoq nuqtasi Pomir bo'lib, eng asosiy topilmalar XI -XIII asrlarga oid [8, 27-bet].

Ayniqsa, O'rta yer dengizi yo'li juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'l orqali bo'ladigan savdoni, dastlab, arab va vizantiyaliklar o'z qo'llariga olgan edilar. Sharqdan g'arbg'a asosan zeb-ziynat buyumlari, vino, achchiqtosh, bug'doy va ayniqsa, murch, dolchin, dorivor mahsulotlar, xushbo'y, xushtam

mahsulotlar, ziravorlar, muattar narsalar, bo‘yoq, shoyi gazlamalar, gilam, mevalar olib borilgan [9, 204-bet].

G‘arbdan Sharqqa esa movut, turli gazlamalar, oltin, kumush, quollar va qullar chiqarilgan. Xususan, Vizatiya bu savdoda tranzit savdo manzili sifatida ko‘p vaqtgacha katta rol o‘ynadi. Aynan shu savdo-sotiqlari Vizantiya Yevropada to XII asrgacha shoyi va ipak gazlamalar ishlab chiqaruvchi yirik markaz bo‘lib keldi [9, 205-bet].

Xorazm bilan savdo uchun asosan, eski yo‘l – Kaspiy dengizi orqali, Volga daryosidan o‘tib, keyinchalik, Janubiy Rus dashtlaridan Qrimga va Qora dengiz bo‘ylariga chiqilgan va yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan savdo shaharlari bilan savdo-sotiqlari ishlari olib borilgan. Xorazm bu yo‘l orqali Germaniya bilan, Buyuk Ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i orqali, hatto olis Ispaniya va Portugaliya bilan ham savdo-sotiqlari munosabatlari o‘rnatgan. Bu hududlarga Xorazm tranzit savdo markazi sifatida faqat Sharqning eng chekka o‘lkalarida, ya’ni Hindistonda yetishtiriluvchi mahsulotlar, ya’ni murch, imbir, chinnigul, lavanda, suyak, galanga kabi dorivor mahsulotlarni olib borib sotganlar [10, 479-480-bet].



XII-XIII asrlarda Xorazmnning Buyuk Ipak yo‘lining janubiy tarmog‘ida ham savdo-sotiqlari rivojlanganiga guvoh bo‘lish mumkin. Ayniqsa anushteginiy larning Eron, Ozarbayjon, Iroq va Xuroson hududlarini o‘z tasarrufiga olishlari natijasida bu savdo aloqlari yanada taraqqiy qilgan.

Ayniqsa, Eronda ishlab chiqarilgan Kazerun matolari butun Sharqda mashhur bo‘lgan. Eronning Kashon shahrida ishlab chiqarilib, keyin butun dunyoga chiqarilgan “minoy” tipidagi koshin sopol, lyustraviy idishlar, turlituman ranglardagi naqshlar tushirilgan chinni idishlar, atir-upa mahsulotlari

dunyoning eng chekkalariga chiqarilgan. Xorazm-Eron savdo munosabatlarida qul savdosi ham katta o‘rin egallagan bo‘lsa kerak. Chunki Eron X-XIII asrlar davomida Sharqdagi eng yirik qul bozorlaridan biri bo‘lgan. Xorazm esa, chetga, yuqorida eslatib o‘tganimizdek, ko‘plab turk va slavyan qullari olib chiqqan. Buni shu davrdagi turli-tuman fors-arab manbalari ham tasdiqlaydi [11, 44-bet].


Xorazm savdo shaharlari X-XIII asrlarda Ozarbayjon va Kavkazorti hududlari bilan ham qizg‘in savdo-sotiq munosabatlarini o‘rnatganlar.

Ozarbayjonda Berda, Tabriz, Shemaxa, Darband, Boku, Ganja, Naxichevan, Marog‘a, Ardabil, Shabran va Baylaqon kabi yirik savdo-hunarmandchilik markazlari mavjud bo‘lib, ular Buyuk Ipak yo‘lining eng asosiy tarmoqlaridan birida joylashgan edi. Ozarbayjon shaharlaridan Xorazm vohasiga xom ipak, gazlamalar, zig‘ir tola matolar, jun, jun mahsulotlari, bo‘yoq moddalari, tuz va mis rudasi, ot va xachirlar olib kelingan [12, 37-38-betlar; 13, 33-bet].

Xorazmliklar bilan arman savdogarlarini, asosan, Eron, Ozarbayjon va Volgabo‘yi orqali savdo-sotiq qilishgan. Arman savdogarlarining savdo manzilgohlari ko‘p yerlarda mavjud bo‘lib, hatto Janubiy Sibirgacha yetib borganlar [14, 210-bet]. Bulg‘or davlatida ular xorazmlik savdogarlarning asosiy raqobatchilari bo‘lgan bo‘lishlari ham mumkin.

Yaqin Sharq va Misrdagi – Bag‘dod, Damashq, Mosul, Qohira, Iskandariya, Xalab, Tripoli, Bayrut, Akra, Quddus, Antioxiya kabi shaharlar jahon savdosida muhim rol o‘ynab, hammasi Buyuk Ipak yo‘lidagi savdoda faol ishtirok etardilar [15, 296-bet].

Xorazm savdo shaharlari savdogarlarini, ayniqsa, Gurganj savdogarlarini noyob mollarini Bag‘dodga, Sharqiyl O‘rtayer dengizi bo‘yidagi shaharlar – Tripoli, Bayrut, Akra, Askalon, Yaffa, Quddus va Qohira, Iskandariyagacha olib borib sotar edilar. Rashididdin Votvotning Iroqdagagi Xorazm noibiga maktubida Usmon ibn Ismoil Xorazmiy ismli savdogarga g‘amxo‘rlik qilishi so‘ralgan [2, 136-bet].



Xorazm savdogarlarini Hindiston bilan bo‘lgan savdoda Amudaryo orqali Balxga, undan so‘ng Qobul, G‘azna, Lahor va nihoyat Dehligacha borganlar. Hindistonga ko‘proq yilqi, qalayi, mis, oltin, kumush pullar va shu singari mahulotlar olib kelingan. Hindiston bilan savdo aloqalari, ayniqsa, Xorazmshohlar – anushteginiyalar davrida juda taraqqiy qildi.

Xorazm savdogarlarini Hindiston bilan bo‘lgan savdoda Amudaryo orqali Balxga, undan so‘ng Qobul, G‘azna, Lahor va nihoyat Dehligacha borganlar. Hindistonga ko‘proq yilqi, qalayi, mis, oltin, kumush pullar va shu singari mahulotlar olib kelingan. Hindiston bilan savdo aloqalari, ayniqsa, Xorazmshohlar – anushteginiyalar davrida juda taraqqiy qildi.

Chunki endi Xorazm yerlari Hindiston bilan bevosita chegaradosh bo‘lib qolgan edi [16, 22-bet].

Arxeologik tadqiqotlar Xorazmning bu davrda Xitoy bilan ham savdo aloqalari ancha rivojlanganini ko‘rsatadi. Xitoydan Gobi cho‘llari, Sharqiy Turkiston, Farg‘ona va Tohariston orqali Xorazmga turli-tuman mahsulotlar olib kelingan. Xitoydan, asosan, ipak matolar, chinni idishlar keltirilgan [16, 22-bet].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xitoyning “seladon” tipidagi chinni idishlarning XII-XIII asrlarga oid Xorazm savdo shaharlaridan tez-tez topilishi ham savdo aloqalarining rivojlanganligini ko‘rsatadi [17, 51-52-betlar]. Xorazmdan Xitoya asosan suvsar, olmaxon, tulki, qunduz, susar, quyon mo‘ynalari, hamda ishlangan echki terilari olib kelingan [15, 296-bet].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, anushteginiylar davlati shaharlari Buyuk Ipak yo‘li savdosida juda muhim o‘rin tutgan. Bu savdo munosabatlari yo‘nalishlari G‘arbda Ispaniya –Andalusgacha, Sharqda Yaponiyagacha, shimolda Sharqiy Yevropa va Janubiy Sibir hududlarigacha, janubda esa Fors ko‘rfazigacha va Hindistongacha yetib borgan edi. Ammo Xorazmning anushteginiylar davri tashqi savdo munosabatlari masalasi alohida tadqiqot mavzusi sifatida haligacha to‘liq o‘rganilmagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. И. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – 612 с.
2. Буниёдов З. Ануштагин-Хоразмшохлар давлати (1097-1235 й.й.) – Т.: “Адабиёт ва санъат” нашриёти, 1997. – 256 б.
3. Хидоятов Г.А. Моя родная история. –Т.: Ўқитувчи, 1990. – 303 с.
4. Калменов М.Д. Археологические памятники Устюрта и Мангистау на средневековых караванных путях (X-XIV вв.)// Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Казань: Институт истории АН РТ, 2013. – 28 с.
5. Кызласов И.Л. Аскизская культура (средневековые хакасы X-XIV вв.).// Степи Евразии в эпоху Средневековья. Серия: Археология СССР. М.: Наука, 1981. – С. 200-207.
6. Мажидов Н.А. Южный Урал XII-XIV вв. // Степи Евразии в эпоху Средневековья. Серия: Археология СССР. М.: Наука, 1981. – С. 222-224.
7. Очерки истории Каракалпакской АССР. т.1. – Т.: Наука, 1964. – 432 с.

8. Бубнова М.А., Половникова И.А. Торговые пути прибалтийского янтаря в Средней Азии (древность, средневековье). – Города и каравансираи на трассах Великого шелкового пути. Тез. докл. Междунар. семинара ЮНЕСКО. Ургенч, 2-3 мая 1991 г. – Ургенч: Изд-во Хорезмской Государственной педагогического института, 1991. – С.25-27.
9. История средних веков. Под ред. З.В.Удальцова. – М.: Высшая школа, 1990, т.1. – 498 с.
10. Ал-Казвини. Памятники городов//Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. С.Д.Сказкина. –М.: Соцэкиз, 1961. Т.1. – 688 с.(С.479-480).
11. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма // Города и каравансираи на трассах Великого Шелкового пути //Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч: Изд-во Хорезмской Государственной педагогического института, 1991. – с.44-45.
12. Кошкарлы К.О.Города Азербайджана на трассах Великого Шелкового пути // Города и каравансираи на трассах Великого Шелкового пути: Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч: Изд-во Хорезмской Государственной педагогического института, 1991. – с.37-38;
13. Геюпов Р.Б. Городище Шабран // Города и каравансираи на трассах Великого Шелкового пути: Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО.– Ургенч: Изд-во Хорезмской Государственной педагогического института, 1991. – с.33-34
14. Смирнов А.П. Волжская Болгария. Степи Евразии в эпоху средневековья. –М.: Наука, 1981. – С.208-213
15. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского завоевания. - Сочинения. Т.24.2. –М.: Наука, 1964. – 657 с.
16. Ртвеладзе Э.В. Великий Щелковый путь. Энциклопедический справочник: Древность и ранее средневековье. – Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – 280 с.
17. Вактурская Н.Н, Вишневская О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов (XII-начало XIII вв.) //МХЭ., вып.1. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С.150-167.

**TARIX**

**XORAZMSHOHLAR DAVLATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY  
MUNOSABATLAR VA ETNOMADANIY JARAYONLAR TARIXIGA  
DOIR BA'ZI MASALALAR**



**Umidbek  
ABDALOV**

**Tarix fanlari  
bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent**

**UO'K 521.40**

*Annotatsiya:* ushbu maqolada XI-XIII asrlarda Xorazmshohlar davlati aholisining ijtimoiy hayoti va Xorazmdagi etnomadaniy jarayonlar tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

*Аннотация:* в статье на основе исторических источников и литературы анализируется общественная жизнь населения Хорезмшахского государства в XI-XIII веках и история этнокультурных процессов в Хорезме.

*Annotation:* this article analyzes the social life of the population of the Khorezmshahs in the XI-XIII centuries and the history of ethnocultural processes in Khorezm on the basis of historical sources and literature.

*Kalit so'zlar:* Otsiz, Takash, sulton, Dashti Qipchoq, Darband, etnomadaniyat, burkut, qo'ng'irot, barlos.

*Ключевые слова:* Хорезмиах, султан, этнос, культура, семья, даши-кипчак, дарбанд, этнокультура, орел, колокол, барлос.

*Key words:* Khorezmshah, sultan, ethnus, culture, seed, Dashti Kipchak, Darband, ethnosculture, eagle, bell, barlos.

Buyuk Xorazmshohlar davlati (1097 – 1231) O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy jihatdan rivojlanishida alohida ajralib turadi. Mazkur jarayon yozma manbalar va ilmiy nashrlarda o'z ma'nosini topgan. Xorazmshohlar davlati O'rta Osiyoda rivojlangan o'rta asrning "oltin" davrida faoliyat olib borishi jihatidan O'zbekiston tarixida muhim o'rin egallaganligini alohida qayd qilish joiz.

Buyuk Xorazmshohlar tarixi tadqiqotchisi Z.M.Buniyatov arab geograflari va sayyoohlari asarlarida, jumladan, Ibn al-Asirda Gurganj "mahallalari", al-Juvaynida "Tanura", Yoqut Hamaviyda "Maydon" dahalari, "Qabilon" darvozasi kabi ma'lumotlarni esga olgan [1,102-bet].

Yevropa bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida Xorazm tayanch vazifasini bajargan. Gurganj hududiy-siyosiy va etnik markaz sifatida xalqaro karvon yo'li taraqqiyotida yetakchi bo'lgan. Xorazmdan boshlanib, Qoraqum sahrosi, Ustyurt dashti qirlari orqali o'tgan savdo yo'llarida to'xtash, dam olish

manzilgohlari, karvon saroylar, sersuv quduqlar, sardobalar qurish bilan birga, dehqonchilik vohalarida chegara qo‘rg‘oni va shaharlar barpo etilgan.

Xorazm vohasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan shaharlar taraqqiyoti, ayniqsa Xorazmshoh – anushteginiyilar davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

XIII asr boshiga kelib Xorazmshohlar davlatiga 27 yirik viloyat bo‘ysundirilib, uning hududlari nihoyatda kengayib, g‘arbda Iroqdan sharqda Hindistongacha, shimolda Orol dengizidan janubda Hind okeanigacha cho‘zilib ketgan edi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi, tabiiy ravishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ijobiy o‘zgarishlar sodir etilishiga sabab bo‘lishi aniq edi. Shu sababli arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga ko‘ra, sun’iy sug‘orishga katta e’tibor berilib, vohalar imkonidan, iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilik rivojlanishida uzilish bo‘lman. Shu o‘rinda Xorazmshoh – anushteginiyilar davri xo‘jalik taraqqiyotining qay darajada bo‘lganligini tasavvur etish uchun, mo‘g‘ul istilosи arafasida (1219-1220-yillarda) Xorazmda bo‘lgan mashhur arab sayyohi Yoqut al-Hamaviy o‘zining geografik qomusi “Mu‘jam al-buldon” (“Mamlakatlar lug‘ati”) asarida Xorazm to‘g‘risida keltirib o‘tgan bir fikrini keltirib o‘tilsa kifoya qiladi. U bunday deb yozadi: “Men u yerga 616-yili (1219-1220-yillar) borgan edim, hech qayerda bunday gavjum va yashnagan o‘lkani ko‘rmaganman. Ekinlari yoppasiga parvarish qilingan, qishloqlari bir-biriga yaqin qatorlashib ketgan, alohida hovli-yu chor bog‘lari ko‘p, dashtda ham qo‘rayu qo‘rg‘onlar bor. O‘lkaning rustoqlarida (dehqonchilik tumanlarida) parvarishlanmagan, obod bo‘lman joyni topish qiyin. Yashil daraxtzorlar, ayniqsa, gujum-u tut ko‘p, chunki ular (aholi) qurilish yog‘ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurtiga yemdir. Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida yurasanmi (aholi ko‘pligi jihatidan) – buning farq yo‘q. Dunyoning hech bir yerida Xorazmdek farovon va aholisi gavjum bo‘lmasa kerak. Xorazmning ko‘pchilik aholi manzillari – bozorlarga, hayotiy zarur narsalarga mo‘l-ko‘l, rastalari ko‘p shaharlardir. Bozori bo‘lman qishloq kamdan kamdir. Bularning hammasi umumiyl xavfsizlikda va tinchlik-xotirjamlikda amalga oshmoqda” [4, 419-bet].

Mo‘g‘ullar istilosи arafasidagi Xorazm shaharlari qiyofasi to‘g‘risida o‘rtas asr manbalarida ham eslatib o‘tiladi. Masalan, fors tarixchisi Zakariyo ibn Muhammad al-Kazviniyning yozishicha: “har bir shahar o‘rtasida yana bir kichik shahar bo‘lgan. Kichik shaharning o‘rtasi qo‘handiz atalgan. Markazdagи kichik shaharlarni shahriston yoki arabcha madinat us-sug‘ro (kichik shahar) deb ataganlar. Uning atrofi devor bilan o‘ralgan va bir necha darvozalari bo‘lgan. Shahriston atrofida katta shahar (madinat ul-kubro) bo‘lib, u ham devor bilan o‘ralgan va bir necha darvozalari bo‘lgan. Katta shahar atroflarida esa uzumzorlar va mevali bog‘lar, ularning tevaragida – ekinzor dalalar bor edi” [5, 134-bet].



Shaharlarda hayot qaynab, savdo-sotiqlig, hunarmandchilik g‘oyatda rivojlangan. O‘lkada ishlab chiqarilgan turli xildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar, gilam-poyondoz, teri, jun, yog‘-moy, sovun, quroslasha, egar-jabdug‘lar, ho‘l meva, quruq meva, ipakliklar, javohirlar va boshqa ko‘plab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda xaridorgir edi. Manbalarda hunarmandchilikning 50 ga yaqin turi rivojlanganligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida xorazmshohlar davri yodgorliklaridan ko‘plab xitoylik ustalar tayyorlagan chinni idishlar parchalarining topilishi ham bu fikrni to‘la tasdiqlaydi. Tashqi va ichki savdo yo‘llari kesishgan joyda va muhim, qulay mavqega ega bo‘lgan xorazmshohlar poytaxti Gurganj (Jurjoniya) yuqorida ta’kidlanganidek, bu davrda nafaqat Movarounnahr, balki yalpi o‘rtalasrlar Sharqining eng yirik shaharlaridan biriga aylandi [4, 419-bet].

Zakariyo Qazviniy esa Gurganj haqida so‘z yuritar ekan, uni Jayhun daryosi bo‘yidagi juda katta shahar, aholisi juda ko‘p, deb ta’riflaydi va “jannatdagi shaharni va chimildiqdagi kelinchakni qo‘riqlaganday, farishtalar qo‘riqlaydi”, -deb yozgan edi [5, 135-bet].

Xorazmshoh – anushteginiyalar davri ikkinchi yirik shahri Ardashumisan (yoki Xushmisan; hozirgi Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Voyangan yodgorligi) ham bozorlari gavjum va aholisi farovon katta shahar bo‘lgan.

Ardashumisanda 1219-1220-yillarda bo‘lgan Yoqt Hamaviy u haqda yozib, bozorlari, mahalliy mollari ko‘pligi, aholisi badavlat bo‘lganligini ko‘rsatadi, uni Suriyaning yirik shaharlaridan Nisibin bilan tenglashtiradi, ammo Ardashumisan undan aholisi ko‘proq va muhtashamroq ekanligini ta’kidlaydi [4, 410-bet]. Ardashumisan o‘rnidagi hozirgi Voyangan yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar manbalardagi fikrlarni to‘la tasdiqlab, Ardashumisanning o‘rta asrlarda yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi [6, 86-93-betlar].

Maqdisiy va Istarixiy asarlarida ham (ya’ni X asrda) katta, boy shahar deb eslatib o‘tilgan Xiva xorazmshohlar davrida o‘zining eng gullab-yashnagan davrini boshdan kechirgan. Shu davrda Xorazmdan o‘tgan barcha tashqi va ichki savdo yo‘llarining Xivadan o‘tganligi uning taraqqiy qilishiga imkon bergan. Bundan tashqari, Xiva atroflarini sug‘organ Xeykonik (Polvonyop) kanalidan kemalar qatnab, nafaqat ichki, balki tashqi savdoda ham muhim rol o‘ynagan. Xivaning XII-XIII asrlarda yirik savdo markazlaridan biri bo‘lganligini arxeologik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi [7, 43-51-betlar].

1219-1220-yillarda Xorazmda bo‘lgan Yoqt Hamaviy Hazoraspni mustahkam qal’a, go‘zal va bozorlari, rastalari ko‘p bo‘lgan yirik savdo shahri sifatida eslatib o‘tgan [4, 419-bet].



Asosiy savdo yo‘llaridan birida joylashgan Darg‘on, ulkan xorazmshohlar davlati vujudga kelishi bilan, ayniqsa, rivojlangan. Chunki savdo-sotiqning rivojlanishiga zamin tayyorlovchi siyosiy barqarorlikning ta’minlanishi, Darg‘onning Buyuk Ipak yo‘lining ham shimoliy, ham janubiy tarmoqlaridagi yo‘llarning muhim tuguniga aylanishiga olib kelgan. Yoqt Hamaviy ham Darg‘onni yirik savdo markazi sifatida tilga olib o‘tadi [4, 419-bet].

Ko‘hna Urganchdan Zamaxshargacha bo‘lgan hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu shaharlar oralig‘idagi o‘nlab kilometrlar boshdan oxirigacha imoratlarning izlari, g‘isht, sopol parchalari va hokazolar bilan qoplanganini, yuksak darajada taraqqiy qilgan dehqonchilik rustoqlari, kanallar izlarining mavjudligini ko‘rish mumkin [8, 68-72-betlar; 11, 41-45-betlar].

Suburna (Shohsanam), Sovkan (Olmaotishgan) savdo markazlari Yoqt Hamaviy asarlarida Movarounnahr va Xuroson bilan olib borilgan savdo-sotiq ishlarida asosiy rol o‘ynovchi obod shaharlar bo‘lganligi ta’kidlanadi [4, 423-424-betlar].

Yana bir yirik o‘rta asr shahri Puljoyda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu yodgorlikning IX-XI asrlarda vujudga kelganini, xorazmshohlar davrida esa (XII-XIII asrlar) bu yodgorlik ham chegara istehkomi, ham Xorazmning Volgabo‘yi va Sharqi Yevropa bilan bo‘ladigan savdo yo‘lida joylashgan yirik savdo markazi bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu savdo markazining ko‘chmanchilar bilan bo‘lgan savdo munosabatlaridagi o‘rni beqiyos bo‘lgan. Y.G. G‘ulomov va V.N.Yagodinlar bu savdo markazini arab manbalarida eslatilgan Git shahri bilan taqqoslaydilar [12, 96-bet; 13, 159-bet].

O‘ng qirg‘oq Xorazmning yana bir yirik savdo markazi Mizzdqon bo‘lib, X asrda Maqdisiy qadimda o‘ng qirg‘oq Xorazmdan o‘tgan uchta asosiy savdo yo‘li ham Mizzdqonga olib borganligini keltirib o‘tadi. X-XIII asrlarda ham bu shahar Xorazmning eng yirik savdo markazi hisoblangan. Movarounnahrning boy savdo shaharlari bilan bog‘lovchi uchta savdo yo‘li Mizzdqonda birlashib, keyinchalik Amudaryodagi asosiy kechuv yo‘li orqali Gurganjga borgan. Mizzdqon yana o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra ko‘chmanchilarga (ayniqsa, o‘g‘uzlarga) yaqin joylashganligiga ko‘ra uning ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdoda ham, eng muhim markazlardan biri bo‘lgan [14, 206-bet].

Xullas, XII asr o‘rtalaridan – XIII asr boshigacha bo‘lgan davr, ya’ni xorazmshoh – anushteginiylar davri, haqiqatan ham, Xorazm savdo markazlarining eng gullab yashnagan davri ekanligini shu davr manbalari ham, arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Mo‘g‘ullar bosqini arafasidagi Xorazmda kechgan etnik jarayonlar tarix fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, aynan shu jarayonlar xorazmshoh – anushteginiylar sulolasining mo‘g‘ullar tomonidan tugatilishining sabablaridan biri hisoblanadi.

Anushteginiylar sulolasining etnik kelib chiqishi va bu sulolaning so‘nggi vakillarining, jumladan, Jaloliddin Manguberdining qaysi qabila vakili bo‘lganligi masalasida turli qarashlar mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi, anushteginiylar sulolasini asoschisi bo‘lgan Anushtegin o‘g‘uzlarning bekdili urug‘idan bo‘lgan va shu asosda u turkman qabilasiga mansub deb qaraladi. Shu bilan birga shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi tadqiqotlarning

ko‘pchiligida, ayniqsa turkman tarixchilari asarlari va maqolalarida anushteginiyarning, shu jumladan, Jaloliddin Manguberdining turkman qabilasidan bo‘lgan degan qarash hukmron bo‘lib, hatto anushteginiyalar sulolasi Turkmaniston tarixidagi ikkinchi turkman imperiyasi hisoblanib, Jaloliddin Manguberdi ularning milliy qahramoni, bo‘lgan degan qarash hukmron [15, 36-59-betlar].

Aslida esa, hech bir manbada anushteginiyalar sulolasi vakillarining qaysi qabilaga mansubligi keltirilmagan. Qolaversa, ko‘pgina tadqiqotchilar manbalarni chuqur o‘rganmasdan turib, Jaloliddinning onasi Oychechakning turkman qabilalaridan birining (aynan bekdili urug‘idan ham emas) vakili bo‘lganligi haqidagi yanglish ma’lumot asosida Jaloliddin ham turkman qabila – urug‘laridan birining vakili bo‘lganligini yozadilar [16, 163-168-betlar, 17, 178-180-betlar]. Ammo manbalarni chuqur tahlil qilish asosida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, hech bir manbada Oychechakning turkman qabilasi vakili ekanligi haqida birorta ma’lumot yo‘q.

Xorazmshohlar davrida etnik jarayonlar manzarasi quyidagicha bo‘lgan: qadimgi yozma manbalarda qayd qilingan va aynan Buyuk Xorazmshohlar davlatining asosiy o‘zagi bo‘lgan qadimgi Turon hududlarida yashagan sak, massaget, derbek, toxar, yuechiji, xun, eftal, xioniy kabi etnik nomlar tarix sahnasidan abadiy barham topib, XII – XIII asr boshlarida Buyuk Xorazmshohlar davrida endilikda o‘g‘uz, qipchoq, qang‘li, qarluq kabi qabilalari o‘z davri manbalari sahifalaridan o‘rin olgan. Umuman olganda O‘rta Osiyo hududlarining turkiylashish jarayoni milodiy VI asr o‘rtalaridan boshlangan.

1938 – 1939-yillarda ikki jildlik “Turkmanlar va Turkmaniston tarixiga oid materiallar” to‘plami chop qilindi. Aynan shu to‘plamda birinchi bor xorazmshoh – anushteginiyalar davlati asoschisi Anushtagin Garchai o‘g‘uzlarning bekdili urug‘iga mansubligi (aslida bu qarashning ham mutlaq ilmiy haqiqatligi isbotlanmagan bo‘lib, yozma manbalarda bu borada turli ma’lumotlar keltirilgan hamda tarixchi olimlar o‘rtasida turli qarama – qarshi fikrlar mavjud [18, 140-bet; 19, 36-bet; 20, 145-bet] va shu asosda Jaloliddin Manguberdi va uning onasi Oychechakning turkman urug‘iga mansubligi g‘oyasi shakllangan [21].

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid asosiy manbalar ichida ham faqat Turkon xotunning qaysi urug‘ga mansubligi keltirilgan xolos. Jumladan, Nasaviy Turkon xotunni yemek qabilasining boyovut urug‘idan [22], Juvayniy o‘zining asari bir joyida Turkon xotunni qang‘li urug‘idan bo‘lganligini yozsa, yana bir joyida uni o‘ron-uran qabilasidan ekanligini (shundan kelib chiqib Rashididdin ham Turkon xotun uroniylar qabilasidan bo‘lganligini yozgan) [23, 350-415-betlar; 24, 209-bet], Juzjonyi yani qipchoq malikasi bo‘lganligini ta’kidlaydi [25, 240-bet]. Nasaviy ham Jaloliddin va uning oilasi, onasini bilgani holda Jaloliddinning aynan qaysi etnik guruhga mansubligini keltirmagan. Nega shunday degan savolga esa javob izlash jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Nasaviy faqat Turkon xotunning va anushteginiyalar sulolasi ba’zi vakillarining

mansub bo‘lgan etnik guruhi nomini keltirib o‘tgan, xolos. Jumladan, Turkon Xotun yemek qabilasining boyovut (V.V.Bartold va P.Pelyolar boyovut urug‘i mo‘g‘uliy bo‘lganligi uchun xato berilgan, aslida u bayot bo‘lishi kerak deb



ta’kidlab o‘tganlar [26, 87-89-betlar, 91-92-betlar, 125-185-betlar; 27, 434-bet; 28, 271-bet].

Kamol Matyoqub tarjimasida ham bayot shaklida keltirilgan, lekin Turkon xotun bayot qabilasining yemek urug‘idan deb xato berilgan [22, 64 va 317-bet].

Nasaviy, uning nabiralari Uzlohshoh va Oqshohlarni, Jand noibi Qutlug‘xon Bo‘ji Pahlavonni ham boyovut (bayot) urug‘idan bo‘lganligini ta’kidlagan [22, 64 va 80-bet; 1, 90 va 247-bet].

O‘tror hokimi Inolchiq Turkon Xotunning jiyani, Samarqand hokimi To‘g‘ayxon va Urganch noibi Xumortegin uning ukasi bo‘lganligi haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ularning hammasi bayot-boyovut urug‘idan bo‘lgan [22, 64 va 80-bet; 1, 90 va 93-bet].

Demak, anushteginiylar davlatida bu paytda qang‘li yoki qipchoq qabila uyushmasining yemek qabilasiga mansub hamda Nasaviy yanglishib boyovut deb atalgan urug‘ yoki Juvayniy keltirgan uron urug‘i hukmronlik qilgan va bundan kelib chiqadiki, Oychechak ham mazkur yemek qabilasining boshqa urug‘iga,

ammo boyovut yoki uron urug‘iga qarshi bo‘lgan urug‘lardan birining vakili hisoblangan degan xulosaga kelish mumkin [22, 207-bet]. Mazkur ma’lumot, Oychechakning ham yemek qabilasiga mansubligini, faqat Turkon xotun urug‘idan bo‘lmaganligini isbotlaydi.

Shunday ko‘chmanchi qabilalardan biri yabg‘u hisoblanadi. XI asrda yabg‘u qabilasi taraqqiyoti jihatidan ancha yuqori turgan. Yabg‘u qabilalari Yangikent atroflarida istiqomat qilib, ular iqtisodiyotida chorvachilik ustunlik qilgan. O‘z yerlarini kengaytirishdan manfaatdor bo‘lgan yabg‘ular musulmon mulklariga, shuningdek, Buxoro va Xorazmga ham ko‘chib keldilar. Orol-Kaspiy dashtlari uchun kurashda ular Xorazmliklardan yengiladilar va Otsiz Xorazmshoh ularning yerlarini Xorazmga qo‘shib oladi.



Qozoq olimi Ch. Valixonov o‘z asarlaridan birida o‘zbek qabilalarining joylashishi haqida ma’lumotlar keltirar ekan, bir qancha viloyatlar qatorida “Xivada va Qo‘qonda yabg‘ular istiqomat qilishlari”ni eslatib o’tadi [30, 183-bet].

Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi:

Xorazm aholisining etnik tarkibi boyiy boshlagan va takomillashgan. Miloddan avvalgi I ming yillik oxirlarida Jayhun aroflariga shimoldan ko'chib kelgan turkiyzabon xalqlar, IV-V asrlardagi xioniy, eftal, kidariylar, VI-VII asrlardagi Turk xoqonligi xalqlari Xorazm aholisi etnik tarkibi muhim o'rin egallaganlar. X-XII asrlarda ko'chib kelgan talay qabilalar turgash, to'xsi, qorluq, chigil, yabg'u va o'g'uzlar o'lkanning sharqiy Eron va turk tillarida so'zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi. Bu davrda o'g'uz shevasi shakllanadi. Shunday bo'lsa-da, Anushteginiylar sulolasining o'g'uzlarning bekdili urug'idan kelib chiqqanligi bahsli masala bo'lib, bu sulola vakillarining, ayniqsa sulolaning so'nggi vakillarining turkman xalqiga mansubligi masalasi manbalarda o'z aksini topmagan va demak, haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Ya'ni, yuqoridagilardan umumiyl xulosa chiqaradigan bo'lsak, Oychechak va uning o'g'li Jaloliddin Manguberdi umuman turkman qabilasiga mansub bo'limganligi aniq. Ular qipchoq qabila uyushmasiga mansub yemek qabilasi urug'laridan (bayot-boyovut va uron urug'laridan tashqari) birining vakili bo'lganliklari haqiqatga yaqin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов-Ануштегинидов. 1097-1231. - М.: «Наука». 1986. – 248 с.
2. Беленицкий А.М, Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. - Л: Наука,1973. – 394 с.
3. Аскаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. Т., “Ўзбекистон”, 2015. – 672 б.
4. Йакут ал-Хамави. Мужам ал-булдан. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. – М.-Л.: Наука, 1939. – С.409-438.
5. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). Т.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – 232 б.
6. Мамбетуллаев М., Кдырниязов М.-Ш. Городище Военган // Археология Приаралья. Вып.І. – Т.: «Фан», 1982, с.86-93.
7. Мамбетуллаев М.М., Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы. – ОНУ. – Т.: «Фан», 1986, №8, с.43-51.
8. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях Левобережного Хорезма //МХЭ, Вып.7. –М.: Наука, 1959, с.54-72.
9. Андрианов Б.В. Археолого-топографические исследования на землях древнего орошения Турткульского и Бирунийского районов Каракалпакской АССР в 1955—1956 гг.//МХЭ, вып.1. – С.143-149.
10. Ўзбекистон Республикаси. Энциклопедия. – Т.: 1997, 617; 649-бетлар.
11. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма //МХЭ, вып.7, -М.: Изд-во АН СССР, 1963. с.41-53.

12. Ягодин В.Н. Некоторые вопросы исторической географии Приаральской дельты Амудары в VII-XIV в. // В кн.: Археология Приарлья. Вып. III. – Т.: «Фан», 1986, с.73-109.
13. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1959. -324 б.
14. Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. – М.-Л.: Наука, 1939. – С.184-209.
15. Язбердыев А. Ануштагин Гарча – основатель династии хорезмских правителей.// Мирас. 2017, № 2. – С. 36 – 59.
16. Язбердыев А. Избранные статьи. В 10-ти томах. Т.III. – Ашгабад: “Ылим”, 2012. – С. 163-168, 178-180.
17. Байрамов М. Об этнической принадлежности Джелал ад-дина Менгуберди и династии хорезмшахов-ануштегединов. - Ашхабад, 2018.
18. Anūštigīn Ğarčā’ī. – Encyclopaedia Iranica. Vol. II, Fasc. 2, p. 140. August 5, 2011// <https://iranicaonline.org/articles/anustigin-garcai-slave-commander>.
19. Kafesoğlu I. Harezmşahlar devleti tarihi (485-617/1092-1229), Ankara, 1956, pp. 36f.
20. Kafesoğlu I. Sultan Melikşah devrinde Büyük Selçuklu imparatorluğu, İstanbul, 1953, pp. 20, 145.
21. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – 612 с.
22. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёкубов таржимаси./ – Т.: O’zbekiston, 2006. – 384 б.
23. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо.(Жаҳон фотихи тарихи)./ Масъул мұхаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2015. – 504 б.
24. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. И. Смирновой, редакция проф. А. А. Семенова. – М., Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – Т. 1, кн. 2. – 317 с.
25. Ṭabakāt-i-Nāṣirī: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia, Including Hindustan; from A.H. 194 (810 A.D.) to A.H. 658 (1260 A.D.) and the Irruption of the Infidel Mughals into Islam / by Minhāj-ud-dīn, Abū-'Umar-i-'Usmān; transl. from original Persian manuscripts by H.G. Raverty. Vol. I. London: Printed by Gilbert & Rivington, 1881. Ixiv, pp.240.
26. Pelliot P. A propos des Comans // Journal Asiatique. 1920. XI série. T. XV. № 1. P. 87-89, 91-92, 125–185.
27. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Том 1. – М.: Изд.Восточной литературы, 1963. – 763 с.
28. Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Сочинения. Том 5. – М.: Наука, 1968. – 759 с.
29. Толстов С.П. Города гузов (Историко-этнографические этюды) //СЭ., 1947, №3, с.55-102.
30. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоклар. –Т.: Ўқитувчи,1994. – 429 б.
31. Абулғозий. Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон, 1992. – 125 б..

**TARIX****OGAHIY ABADIYATI****UO'K 574.511**

**Umid  
BEKMUHAMMAD**

**Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori**

*Annotatsiya:* ushbu maqolada Ogahiyning adabiyot va tarixshunoslikka qo'shgan hissasi hamda mirob sifatidagi faoliyati tadqiq qilinadi.

*Аннотация:* в статье рассматривается вклад Огахи в литературу и историографию, а также его деятельность в качестве мираба.

*Annotation:* this article examines Ogahi's contribution to literature and historiography, as well as his work as a mirab.

*Kalit so'zlar:* Xiva xonligi, adabiyot, tarix, mirob, yop.

*Ключевые слова:* Хивинское ханство, литература, история, мироб, яп.

*Key words:* Khiva Khanate, literature, history, mirob, yap.

Saroya kirib kelgan ul kishini a'yonlarning hammasi e'zozlab qarshi olishdi. Keyin esa navbatsiz xon huzuriga kiritib yuborishdi. Hatto, qo'shni davlat haqida muhim xabar olib kelgan ayg'oqchi-shig'ovul ham tashqarida qoldi. Shuningdek, xorijdan xon hazratlari buyurtmasini keltirgan bozirgon-savdogar, fuqarolar arz-dodini bevosita hukmdor bilan kengashib, hal etuvchi qozikalon janoblari ham uning bu harakatiga monelik qilmadi. Oqsoq kishining xon huzuriga kirib ketganiga hech kim e'tiroz bildirmaganining sababi, bu inson davlatning eng e'tiborli kishisi – mirob Muhammadrizo edi...

Quyi Amudaryo bo'yalaridagi Qizilqum va Qoraqum oralig'ida joylashgan vohada suv hayot manbai edi. Miroblik shu bois ham Xorazmda eng yuqori amal sanalardi. Bu kasb yurt obodonligi, davlat iqtisodiyoti, dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan. Hatto, Xiva xonligida maxsus "begor" solig'i ham qo'llanilgani tarixdan ma'lum. Ushbu soliq suvdan foydalanadigan har bir xonardon uchun majburiy edi. Ariq va kanallarni tozalashga yilning kuz faslida barcha jalb etilardi. Qazuvni bevosita xon, keyin mirob boshlab, xalq davom ettirardi. O'sha davrlarda suv sathi yer yuzasidan past bo'lgani uchun miroblar suvni yuqoriga ko'taradigan qurilma-chiqirdan foydalangan. Natijada ariq, kanal(yop) suvlari ancha balandga ko'tarilib, kerakli joylarga chiqarilar edi.

Ogahiy Xiva xonligi tarixida uzoq yillar miroblik shajarasini davom ettirgan sulola vakilidir. Uning bobosi Jivanbiy 1694-yilda Xorazmning bosh mirobi etib ko'tarilgan. Oil a xonlar sulolasiga qarindoshligi bois nufuzli

sanalardi. Jiyanbiyning vafotidan so‘ng undan Avazbiy va Erniyozbek ismli ikkita o‘g‘il qoldi. Ular ham xonlikda miroblik sulolasini davom qildirishdi. Dastlab Erniyozbek, uning vafotidan so‘ng Shermuhammad Avazbiy, ya’ni Munis Xorazmiy bosh mirob qilib tayinlandi.



Munis 1809-yil 17-dekabrda tug‘ilgan jiyani Muhammadrizo, xorazmchasiga aytganda Matrizoga otaliq qilgan, desa ham bo‘ladi. Chunki keyinchalik Ogahiy taxallusini tanlagan shoirning uch yoshida otasi vafot etgach, tog‘asi – mirob Munis uni asrab olgandi. Shoir tog‘asining ta’limi bois Ogahiy ham ijodga ixlos qo‘ydi. Arab, fors, turk tillarini o‘rgandi, madrasada tahsil oldi. Uning og‘asi Muhammad Karim 1855-yildagi urushda vafot etgandi...

“Ta’viz ul-oshiqin” devonida Ogahiy o‘zi haqida shunday yozgandi: “faqir aban anjad Xorazm mamlakati sultonlarining davlatxoh umarosi zubdalaridin va o‘zbekiya tavoifidin yuz dudamoni umdalaridin miroblig‘ mansabi oliysig‘a mansub va sadrnishinlik martabai mubtalosig‘a mansubdurman”. Ya’ni shoirning ajdodlari amirlar (xonlar) sulolasidan va o‘zbeklar toifasining yuzlar urug‘idan, miroblig‘ mansabi oliysig‘a mansub va ulug‘ mansabdorlik martabasig‘a bog‘liq, deganidir.

Muhammadrizoning tavallud topgan uyi Ichon qa’ladan taxminan 5-6 chaqirim uzoq masofadagi Qiyot qishlog‘ida (hozirgi Xiva – Qo‘shko‘pir yo‘lining chap tarafida) bo‘lgan.

Ogahiy tog‘asi Munisning 1829-yildagi vafotidan so‘ng xonlikning bosh mirobi sifatida 1857-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi. U mirob yordamchisi, bosh mirob sifatida ishlagan davrlarda Xorazmdagi butun ariq, yoplarni tozalatish, yangi suv yo‘llarini qazdirish bilan shug‘ullandi.

Ma’lumki, o‘sha davrlarda ham Xorazmning yerkeli sho‘rangiz, uch-to‘rt martalab kech kuzdan erta bahorgacha sho‘ri yuvilmaguncha hosil olish qiyin bo‘lgan. Yerlarga daryordan arna (anhor)ga, undan yoplar orqali dalaga suv chiqarishning o‘zi bo‘lmagan. Bunday g‘oyatda ma’sul ishlarga esa miroblar boshchilik qilgan. Xonlikdagi miroblik ishlari, umuman, suv muammosini bartaraf etish esa bosh mirob Ogahiyning zimmasidagi yuksak vazifa edi. Tabiiyki, bosh miroblik vazifasiga ishbilarmon, yer holatini, suv yo‘llarini yaxshi biladigan, mudomo dala-suv yo‘llarida yurishga layoqatli, sog‘lom inson tayinlangan.




Sun’iy sug‘orishga mo‘ljallangan arna, yoplarni qazdirish, har yili kuz va erta bahorda Amudaryoning loyqa suvidan kanallarni tubiga o‘rnashib qolgan cho‘kindilarni tozalatish undan-da katta mashaqqat, nainki ekin maydonlarini, balki xonlik hududini daryo toshqinidan saqlashga harakat qilish bosh mirobning zimmasida edi. Xorazmda dagish deya daryoning toshqinidan sodir bo‘ladigan o‘pirilish, katta ofat nazarda tutilgan. Ba’zida jo‘shqin Jayhun daryo qirg‘og‘ini tagidan o‘pirib, 30-40 metrlab joyini yutib ketadi. Natijada atigi bir lahzagina oldin ekilib turgan yer bo‘tanaga aylanadi, hududni suv bosadi. Aynan ana shunday o‘pirilish-toshqinlarning oldini olish uchun daryo qirg‘og‘ini dambalar ko‘tarib (bu Xorazmchasiga “qochi” deyiladi) mustahkamlash qadimdan o‘ta ma‘suliyatlari vazifa bo‘lib, bu ishga bosh mirob boshchilik qilgan. Dambalarni ko‘targanda nazorat qattiq bo‘lib, tuproqqa birorta cho‘p-o‘tin aralashmasligiga e’tibor qaratilgan. Chunki, sichqon iziday tirqishdan nebir qochilarning o‘pirilib ketishi fojia – suv toshqinini keltirib chiqargan.

Dambalar daryo qirg‘og‘i bo‘ylab, bir necha qatorlab, miroblarning aniq hisob-kitoblari asosida olib borilgan. Dambaning pastdan yuqorigacha kengligi 15-18 metr, usti bo‘lsa 8 metrgacha, daryo sathidan 3-4 metr baland qurilgan. Damba ko‘tarish, arna, yoplarni qazishga xonlikdagi barcha erkaklar jalb etilgan. Dastlab xon, so‘ngra bosh mirob arna yoki yopga kech kuzda tushib, aholi ko‘z o‘ngida belkurak bilan tozalashni boshlab bergen. So‘ng qolgan ishni omma davom qildiravergan.

Ogahiy hazratlari 36 yoshida – 1845-yili xonlikdagi qazuv harakati avj olgan paytda otdan yiqilib, oyog‘i singani bois biroz oqsoqlanib yurgan.

Qolaversa, miroblik ishi g‘oyat qiyin vazifa bo‘lib, suv muammosi, nizojanjallarni bartaraf etish ham unga bog‘liq edi. Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ana shunday serg‘alva, ayni paytda savobli va nufuzli amalda ishlasa-da, hamisha ijod bilan shug‘ullanishga vaqt topdi. Avlodlarga o‘n sakkiz ming misra g‘azal, yigirmaga yaqin tarixiy va tarjima asarlar yozib, meros qoldi. “Gulshani davlat”, “Riyoz-ud davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome’ ul voqeoti Sultoniy” kabi tarixiy asarlari Xorazm tarixining ko‘plab noaniq bo‘lib kelayotgan davrlaridagi voqealarni oydinlashtiradi.

Ta’kidlash joizki, mazkur asarlarda xalq hayotidan ko‘ra, ko‘proq ijtimoiy-siyosiy voqealar, xonning qayerga borgani-yu, nima deganlari yoritilgan. Buni o‘scha zamon taomilidan kelib chiqib qabul qilmoq lozim. Zero, mudom xon yonida yurgan mirobning asarida shu holat uchrashi odatiy hol. Ogahiy umri davomida sakkiz nafar xon Xivaga hukmronlik qilgan davrlarda yashadi. Tabiiyki, 8 xil boshqaruv, 8 xil muhitda yashash, ijod qilish Muhammadrizo uchun oson emasdi. Umuman aytganda, Ogahiy asarlari Xorazm tarixnavisligidagi eng katta salohiyatli manbalardir.



1863-yili xonlikka kelgan Herman Vamberi ham shaxsan Ogahiy bilan tanishib, uning va tog‘asi bo‘lgan Munisning asarlarini Yevropaga olib ketgan edi. Ogahiy asarlarining Sharq davlatlaridan tashqariga ham tarqalishi 1873-yildagi chor hukumati istilosini bilan bog‘liq. Xiva xonligi mag‘lublik alamini chekkan paytda Ogahiy hayot edi. Istilodan so‘ng xonlikka kelgan rus sharqshunosi A.N.Kun Ogahiyning asarlarini “Turkestanskaya vedomosti” gazetasi sahifalarida yoritgan. Keyin bir necha asarlarini tadqiq etish uchun Moskva, Peterburg shaharlariga olib ketdi. Garchi Ogahiy 1874-yilda vafot etgan bo‘lsada, qazdirgan yop, ariq, kanallar, yaratgan asarlari va ekkan tuti bugun ham barhayotdir.

## ARXITEKTURA

### ICHON QAL'A HUDUDIDAGI TURAR JOYLARNI RESTAVRATSIYA VA REKONSTRUksiYA QILISH HAMDA MEXMONXONAGA QAYTA JIXOZLASH BO'YICHA ILMiY AMALiY LOyiHA TAKLiFi.



**Gavxar Durdiyeva**  
Arxitektura fanlari doktori



**Adilbek  
ZARGAROV,  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi katta ilmiy  
xodimi**

**UO'K 570.511**

*Annotatsiya:* ushbu maqolada Ichon qal'a hududidagi turar joylarni restavratsiya va rekonstruksiya qilish hamda mehmonxonaga qayta jihozlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar yoritilgan.

*Аннотация:* в статье освещены научно-практические предложения по реставрации и реконструкции резиденций на территории замка Иchan и переоборудованию под гостиницу.

*Annotation:* in this article, the scientific and practical proposals for the restoration and reconstruction of the residences in the territory of the Ichon Castle and re-equipment to the hotel are covered.

*Kalit so'zlar:* Xiva, Ichon qal'a, me'mor, uy-joy, mehmonxona.

*Ключевые слова:* Хива, замок Иchan, архитектор, жилье, гостиница.

*Key words:* Khiva, Ichon castle, architect, housing, hotel.

Xiva shahri o'zining XX asrдан ziyod tarixi davrida bir necha bor qayta qurilib, qayta tiklandi. Bu davr mobaynida shaharning shahriston qismi – Ichon qal'ada turli maqsadlarga mo'ljallangan bino va inshootlar bunyod etildi. Shahar davlat markazi bo'lgandan so'ng mazkur bunyodkorlik ishlari tezlik bilan katta hajmlarda olib borildi. Ayniqsa turar joylar me'morchiligidagi ancha ishlari qilindi.

Xiva turar joy arxitekturasida nazar solsak, unda uy egalari o'zlarini uchun yashash va dam olish bilan birga asosan hunarmandchilik ishlari bajarish uchun shart sharoitlar yaratishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin, shu bilan birga iqlim sharoitlarga moslashish va hududda mavjud qurilish ashyolari



**Anvarbek  
BOBOJONOV  
URDU Qurilish  
kafedrasi o'qituvchisi**



**Bekzod  
XUDAYBERGANOV  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi kichik  
ilmiy xodimi**

xususiyatlaridan kelib chiqilgan. Biz bilamizki, Xorazm vohasi Amudaryoning quyi qismida quruq subtropik iqlim zonasida joylashgan. Yoz fasli issiq jazirama bo'lib, havo harorati 45°C gacha qizadi, yog'ingarchilik yiliga 130...160 mm, yog'ingarchilik kam. Qish mavsumi esa quruq sovuq, havo harorati -25°...-32°C soviydi. Yilning o'rtacha sakkiz oyida aholi asosan uyning tashqarisida yashaydi, mehnat qiladi va maishiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

Qolgan 4 oyini uy ichkarisida yashaydi. Bunday sharoitni hisobga olgan qadimgi me'mor quruvchi ustalarimiz vohada o'ziga xos turar joy me'moriy yechimlarni o'ylab topishgan. Bunda yoz paytida uy tashqarisida bo'lish hisobga olingan. Yozning issiq havosidan saqlanish, yengil shabada hosil qilish maqsadida ayvon kontruksiya bunyod etish bo'ldi. Shu bilan birga qish payti issiq havoni hosil qilish maqsadida ham ayvon konstruksiyasidan foydalanildi. Xiva turar joylarining asosiy dominant qismi bu ters va o'ng ayvonlar bo'lib, boshqa xonalar mazkur ayvonlar atrofiga joylashtiriladi.


1990-yilda Birlashgan millatlar tashkilotining YUNESKO tashkiloti tomonidan Xiva shahri tarixiy-me'moriy qismi bo'lган Ichon qal'a hududi Butunjahon tabiiy va madaniy-merosiy ro'yxatiga kiritildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Xiva shahri tarixiy me'moriy qismi Ichon qal'a hududi xalqaro nufuzli tashkilot tasarrufida bo'lган harakatdagi madaniy meros obyektlari sirasiga kiradi. Bu tashkilot o'z navbatida UNWTO – xalqaro turizm tashkiloti bilan birgalikda hamohanglikda jahon tabiiy va madaniy meros durdonalariga juda ehtiyyotlik bilan munosabatda bo'lishda hamkorlik qilib keladi.

Keyingi yillarda Xiva shahri tarixiy-me'moriy qismi Ichon qal'a hududiga nazar solsak, mazkur turar joylarning arxitekturasida an'anaviylikdan chekinish, mazkur tarixiy ansamblga mos kelmagan arxitektura va qurilish elementlari kirib kelmoqda. Bu o'z navbatida yuqorida qayd etilgan nufuzli xalqaro tashkilot mutaxassislarining e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Bu masalada mazkur tashkilot tomonidan e'tiroz va ogohlantirishlar taqdim qilindi va qilinmoqda. Albatta,


buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, hayotimizga yangi muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari kirib keldi. Ikkinchidan, Ichon qal'a hududi harakatdagi aholi zonasidir. Demak, bu yerda yashovchi insonlar ham zamonaga moslashadi.

Xiva turar joylari, ayniqsa, shahar turar joylari qurilishida ishlataladigan qurilish material va konstruksiyalardan iboratdir. Turar joy qurilishida, asosan, sinch konstruksiyasidan foydalanilgan. Bunda asosiy bino karkasi mahalliy terak va gujum daraxtidan tayyorlangan taxta va yog'och materiallarida foydalanilgan. Karkas konstruksiylarida to'ldiruvchi material sifatida qo'lда quyilib tayyorlangan xom g'isht va somon loy ishlatalgan. Lekin uylarni zamonaviy qulay sharoitlar va imkoniyatlarga ega bo'lgan mehmonxonalarga jihozlash maqsadida uy interyerlarida zamonaviy qulayliklar yaratishga, eksteryerida esa zamonaviy arxitektura elementlari ishlatalishaga harakat qilishadi. Hattoki, binolar asosiy va qoplovchi konstruksiya va materiallarida xam zamonaviy elementlardan foydalanishmoqda. Mazkur qulayliklar insonlar hayotiga ijobiyligi ta'sir qilib, ikkinchi tomondan hududning betakror tarixiy-me'moriy ko'rinishiga o'zining




salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday paytda qandaydir boshqa bir yechimlarni izlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirib o‘tilgan bir qancha negativ faktorlarning yechimi sifatida biz quyidagi loyiha takliflarini keltiramiz. Loyihalashtirilayotgan obyekt Xiva shahri Ichon qal‘a hududidagi Zargarlar ko‘chasi, 101-uy manzilida joylashgan bo‘lib, loyiha viy takliflarimiz quyidagicha:



Loyixa taklifi konkret takliflar asosida olib boriladi. Mazkur loyiha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniy meros



agentligi ilmiy-ekspert kengashi tomondan ma’qullangan bo‘lib, restavratsiya vaqtida ushbu loyiha-takliflaridan foydalanib, Xiva madaniy merosini kelajak avlodlarga to‘la-to‘kis yetkazish mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. МАНКОВСКАЯ Л. М. Памятники зодчества Хорезма.
2. Пугаченкова Л.К. Шахрисабз, Термез, Хива.
3. Материалы бутовой технической инвентаризации по Хорезмской области.

4. Булатова В.А., Ноткин И.И.- Архитектурные памятники Хивы.  
Ташкент, «Узбекистан», 1965. 79 с. с ил. 6 л. ил.
5. Воронина В.Л. - Строительная техника древнего Хорезма. ТХАЭЕ.  
т.1. М., Наука, 1952. с.87-104
6. Гулямов Я.Г. - Памятники города Хивы. Труды УзФАН СССР.  
Церийа
7. История, археология. Вып. III. Ташкент, Уз ФАН, 1941. 44 с

FILOLOGIYA

## AFSONAGA AYLANGAN UMR

UO'K 574.511



**Umid  
BEKMUHAMMAD**

**Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori**

*Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyotshunos va shoir Bahodir Sodiqovning hayoti va faoliyati, ijodiy merosi yoritib beriladi.*

*Аннотация: в статье будут освещены жизнь и творчество литературного критика и поэта Бахадира Содикова, а также его творческое наследие.*

*Annotation: in this article, the life and work of literary critic and poet Bahadir Sodikov, as well as his creative heritage, will be highlighted.*

*Kalit so'zlar: Shovot, ToshDU, adabiyot, she'riyat*

*Ключевые слова: Шавот, ТашДУ, литература, поэзия.*

*Key words: Shavot, TashDU, literature, poetry*

21 yoshida o'zidan yorqin nom va katta meros qoldirib ketgan adabiyotshunos Bahodir Sodiqov Shovot tumanidan edi.

Agarki atrofingizdagagi aksariyat shu yoshdagi yigit-qizlarga razm solsangiz, hali tanlagan kasbi bo'yicha dadil bir ishga kirishib keta olmagandek. Biroq Bahodir Sodiqov 21 yoshigacha o'z tengdoshlaridan ancha o'zib keta olgandi, desa bo'ladi. Buni u kishi yozgan adabiy-tanqidiy maqolalar, she'rlar, kundaliklar yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bahodir Sodiqov vafot etganiga ancha yillar bo'lgan esa-da, u kishini bilgan yaqinlari, tengdoshlari, birga o'qigan talabalikdagi do'stlari adabiyotdan gurung ochilganida "Hozir Bahodir tirik bo'lganidami..." – deya afsus-nadomat aytib turishadi.

Ma'lumki, 21 yoshdagi ijodkordan odatda boshlovchi adabiyot ixlosmandlariga xos ayrim qoralamalargina qoladi. Ammo Bahodir Sodiqov umri qisqa bo'lgani bilan o'zidan boqiy asarlar yaratib qoldirgan ekan.

Hayotligida "Uchinchi imtihon" sarlavhali maqolasi "Guliston" jurnalida ayrim qisqartirishlar bilan chop etilgan, "Sharq yulduzi"da chiqqan "Qirqinchi afsona" maqolasini ko'rish esa u kishiga nasib qilmagan ekan... Biroq Bahodir aka ko'plab adabiy tanqidiy maqolalar, she'rlar, dostonlar yozgan ekanki, ular



do'sti, shoir Berdi Rahmatda, Shovotlik qarindosh urug', sinfdoshlari, onasi Saodatjon ayaning xonadonida, u kishi o'qigan 33-sonli maktabda saqlanib qolibdi. Xurshid Davron, Bahrom Ro'zimuhammad kabi shoirlarning sa'y-harakati bilan keyinchalik Bahodir Sodiqov yozgan maqolalar "Yoshlik", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" nashrlarida, "Kamalak" majmuasida chop etildi. "Xurshid Davron kutubxonasi" internet saytida esa har yili marhum munaqqid tavallud topgan 19-aprelda B.Sodiqov ijodidan namunalar, u haqdagi maqolalar qayta-qayta berib borilmoqda. Ana

shundan keyingina faqat birga o'qigan do'stlarigagina tanish bo'lgan Bahodir Sodiqov nomi keng adabiy-ilmiy, ijodiy jamoatchilikka ma'lum bo'ldi.


2017-yilda mening Bahodir aka haqidagi "Xotira uyg'onsa go'zaldir" nomli kitobim Xurshid Davron so'zboshisi bilan chop etildi... Hali Bahodir og'aning qo'lyozma holida qolib ketgan qancha maqolalari bor... Nasib qilsa ularni ham nashr qidirish niyatidaman...

Bahodir Sodiqov Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida talaba bo'lgan 1976-1980-yillar sho'ro mafkurasining senzurasi, shuningdek, ma'lum bir qolipda qotib qolgan "olim", ijodkor, muharrirlarning matbuotga "to'g'on" qurib olgan ziddiyatli davri edi. Ana shunday davrda yashab ijod etgan Bahodir aka o'zbek adabiyotshunosligiga erkin nafas olib kirishga intilgandi. Biroq davr Bahodir aka yozgan maqolalar, she'rlarni chop etishga tayyor emasdi.

Ha, davr ana shunday erkinlikni iskanjaga olgan holatda edi. Ammo Bahodir aka dadasi Karimbergan aka, Saodatjon ayadek e'tiqodi mustahkam oilada voyaga yetgani uchun o'tmishga, qadriyatlarimizga g'oyat ixlos qo'ygan inson, nafaqat Shovotning sharaflı Bahodiri, o'zbek adabiyotining yetuk ijodkori bo'lgan ekanlar. Shovotliklar o'zlarining ana shunday farzandi bilan faxrlansa arziydi.

## OILA SHAJARASI

Shovot tumani Beshmergan qishlog‘ining Shovotyopga yaqin joydag‘i “Xo‘jaja’mi” hududida faqat Sodiqovlar xonadonigina yashashadi. Ilgari xonlik va sho‘ro davrlarida bu yerlarda xutor xo‘jalik – unchalik katta bo‘limgan “Xo‘jaja’mi” degan elat bor edi, xolos. Sho‘ro davrining xutorlarni yo‘qotib, aholini posyolkalarga ko‘chirish siyosati natijasida ko‘pchilik xonadonlarning azaliy uylari yiqitilib, qishloqning boshqa hududlariga majburan ko‘chiriladi. Faqatgina Karimbergan Sodiqov xonadonigina rais-raykom buvalarga erta-indin ko‘chishni va’da qilib, o‘z uylarini saqlab qolishadi. Bugun ana shu hududdagi bog‘zor, tutzor, paxtazorlar orasida Karimbergan akaning ikki o‘g‘li – Bahrom va Valijonlar alohida-alohida uylarda istiqomat qilishadi.



Tarixga, milliylik va qadriyatlarga sodiq Sodiqovlar xonadoni ana shu Beshmergan qishlog‘ida o‘tirimli bo‘lganiga ham bir necha asrlar bo‘ldi. Ushbu xonadonning yaqin qarindoshi, Karimbergan aka va Saodatjon ayaning qizi Darmonjonning turmush o‘rtog‘i Zafarbek Odilov ushbu oila shajarasini hikoya qilib berdi.

– Shayx Sharof bobo degan ulamo asli Arabistonning quraysh qabilasidan bo‘lib, To‘rabekxonim davrida Ko‘hna Urganchga keladi. U kishining maqbarasi “Baytul-hikma” – Ma’mun akademiyasining o‘ng tarafida bo‘lib, To‘rabekxonim buyrug‘i bilan o‘sha

davrda barpo qilingan. Shayxning qabri maqbara ichiga emas, maqbaraning chekkasiga qo‘yilgan.

Rivoyat qilishlaricha, Shayx Sharof ota shaharga kirib kelgan vaqtida ustalar maqbarani To‘rabekxonim uchun uning buyrug‘iga ko‘ra qurayotgan bo‘lganlar. Ustalar shunda hazillashib, eski juldur kiyimda, eshak mingan shayxga maqbarani sotib olishni taklif qilishadi. Shayx bu paytda Arabistondan Ko‘hna Urganchgacha bo‘lgan og‘ir, mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tib, g‘aribona ko‘rinishda, yupun kiyimda qolib ketishga majbur bo‘lgandi.

Biroq Shayx Sharof ota e’tiqodi mustahkam, qat’iyatli, g‘ururli inson bo‘lib, ustalardan maqbarani qanchaga sotishlarini so‘raydi. Ustalar esa maqbara ichi oltin va kumushga to‘ldirilsa, inshoot sotilishini aytishadi. Shunda shayx eshakdan tushib, maqbaraga “Bismillah” deb kiradi va ilohiy qudrat bilan karomat ko‘rsatadi. Ya’ni, bir yengini silkitganlarida oltin, ikkinchi yengini silkitganda

kumush to‘kiladi maqbaraga. Bu holatni ko‘rgan ustalar hayratlanishib, To‘rabekxonim oldiga borib, bu xabarni yetkazishga shoshiladilar. Voqeadan ogoh bo‘lgan To‘rabekxonim “Maqbarani o‘sha kishiga bering”, – deya farmon beradi va kelib shayxni otga mindirib, hurmat-u e’zozini joyiga qo‘yadi. Shundan so‘ng Sharof ota umrining oxirigacha Ko‘hna Urganchda yashab, xalqni ma’rifatga, ilmga chorlagan.

Vaqt o‘tib, Sharof otaning farzandlaridan Yoqubxo‘ja va Yusufxo‘jalar Shohoboddagi Katqa’la qishlog‘iga kelib, ilm-ma’rifat tarqatishadi. Yoqubxo‘janing farzandi Tojaddin oxun esa Beshmergan qishlog‘iga kelib yashay

boshlaydi. Ushbu suloladan Yusufoxun, Husin, Sodiq singari naqshbandiya tariqatida bo‘lgan ulamolar yetishib chiqqan. Ularning o‘z vaqf yerlari ham bo‘lgan.

Afsuski, sho‘ro davridagi kollektivlashtirish, quloqlashtirish, qatag‘on siyosati davrida ushbu sulolaning yerlari, mol-mulkleri tortib olinadi. Eshchanov Olim, Zabibullo, Odil, Ibrohimjon, Is’hoqjon kabi shu sulolaga mansub kishilar davr jabrini chekishadi.

Biroq 2 jahon urushi boshlangach, ushbu sulolaga mansub Sodiqjon va Is’hoqjonlar ham ko‘plab eldoshlari kabi fashistlarga qarshi



kurashga otlanishadi. Ammo ularning har ikkalasiga ham jonajon Beshmerganiga qaytish nasib etmaydi – urushda halok bo‘lishadi. Har ikkala jangchidan ikkita qiz va bir o‘g‘il yodgor bo‘lib qoladi. Farzandlar davr qiyinchiliklarini, urushdan keyingi mashaqqatlarni yengib voyaga yetishadi.

1958-yilda Saodatjon Is’hoqjon qizi va Karimbergan Sodiqjon o‘g‘li 18 yoshlarida turmush qurishadi. 1959-yilning 19-aprelida Beshmerganlik yosh oila sohiblarining qalblari quvonchga to‘ladi – ularning xonadonida o‘g‘il farzand tavallud topgandi. Yaxshi niyat bilan ular farzandiga Bahodir deya ism tanlashadi.

### BOLALIK VA O‘SPIRINLIK YILLARI

Bahodir bolaligidanoq epchil, tirishqoq bo‘lib voyaga yetdi, – deya to‘ng‘ich farzandini xotirlaydi Saodatjon hoji ona. Biroq 3 yoshligida negadir ko‘zi ko‘rmay qoldi. O‘shanda bir oycha bechora bolamni orqalab, ovuntirib,

yaratganga nola qilib yurdim. Kuni bilan uyimiz atroflari, dala chetlariga borib Bahodirni orqalagancha vaqt ni o‘tirardik. Shunday ayanchli kunlardan birida, kungirali hovlimizdagi qadimiylar me’morchiлик uslubida yasalgan darvoza oldiga borib, ne bo‘ldiki, uning zulfini taqillatdim. Ya’ni zulf sadosi bilan Bahodirni ovuntirmoqchi bo‘ldim. Shunda bir oydan beri ko‘zi ko‘rmay, bizlarni tashvishlantirib yurgan Bahodirning ko‘zlar qadim darvozaning zulfi sadosini eshitib, ochilib ketdi. Shundan keyin Bahodir biron martayam og‘ir kasallikka uchramadi, sog‘lom bo‘lib kamol topdi.

Shovot tumanida feldsher va tabib sifatida mashhur bo‘lgan Karimbergan aka va oddiy qishloq ayoli Saodatjon opaning Bahodir Sodiqovdan kichik Shodmonoy, Bahrombek, Sharofat, Enagul, Darmonjon, Xosiyat, Valijon, Ozoda, Zebo ismli ukalari bo‘lgan.

Ana shunday katta oilada voyaga yetishgan farzandlar ichida Bahodir o‘zining aql-zakovati, mehnatkashligi, ayniqsa, turli sport, san’at turlariga qiziqishi bilan ajralib turgan.

Bahodir oldiniga 8 yillik Hamid Olimjon nomli, keyin Lomonosov nomli o‘rta maktabda tahsil olgan davrlaridayam o‘z tengqurlari ichida izlanuvchanligi, zehn va saviyasi bilan ajralib turgan.

Sinfdosh yigit-qizlarga bag‘ishlab hajviy she’rlar yozar, ulardagi mavzu qiziqarliligi bilan birga, yuksak saviyali ham edi, – deya xotirlaydi sinfdoshi, endilikda o‘zi o‘qigan 33-sonli maktab kutubxonachisi Norgul Norboyeva, – men, Bahodir, Jumanazar, Yo‘ldosh, Rajabboy, Norjon, Gulbahor, Bikajonlar birgalikda maktabga borib kelardik. Maktabdan kelib, o‘sha davr odatiga ko‘ra ota-onalarimizga paxta chopig‘ida, hosilni terib olishda yordam berar, kim o‘zarga paxta terardik. O‘shanday paytlarda Bahodir eng ko‘p paxta terardi.

Hali kichik sinfdaligimiz paytida birgalikda samovar qaynatib kolxozchilarga choy qaynatardik. Keyin yuqori sinfdaligimizda o‘z nomimizga mehnat daftarchasi ochdirib, dalaga chiqib ishlab, pul topardik. Topgan pulimizga esa Bahodir tuman markazi, Urganchga borib, kitob sotib olib kelardi. Hatto paxta dalasi chetidayam kitob o‘qib o‘tirardi. Yoz faslida ularning uyiga yaqin sertoshqin Shovot kanaliga cho‘milishga borardik. O‘shanda u chaqqonlik bilan kattakon kanalning u boshidan bu boshiga suzib o‘tardi, – deya marhum sinfdoshini xotirlaydi 33-sonli maktab o‘qituvchisi Jumanazar Qo‘chqorov.

“Biz qizlar ham ba’zida qiziqish sabab Shovot kanaliga borardik. O‘shanda yoshlik zavqi bilan Bahodir: “Soatingizga qarab turinglar, qancha vaqt suv ostida qolarkanman”, – deya suvgaga sho‘ng‘irdi. Oradan ancha vaqt o‘ta boshlagach, soatimizga qarab tashvishlanar, ba’zida “Bahodir cho‘kib ketdi”, – deya ayuhannos solib qichqirardik. Shunda Bahodir suv ostidan sho‘ng‘ib chiqib, bizni hayratga solardi, – deydi Norgul opa.

Bahodir uyi atrofida dor yasab, dorbozlik o‘yinlarini ko‘rsatar, futbolni ham sinfdoshlar ichida yaxshi o‘ynar, doira ham chalardi. Qachonki, mollarga o‘t o‘rish, maktabga borish uchun chaqirib borsak, doimo kitob o‘qib o‘tirgan bo‘lardi, – deydi yana bir sinfdoshi Yo‘ldosh Davletov.

Bolaginam faqat mакtab darsliklarinigina emas, turli kutubxonalarga borib har xil sohalarga oid kitoblarni olib kelib, mutolaa qilardi. Ba’zan yarim tunlarda xonasiga kirib uqlab qolgandir, deya chiroqni o‘chirmoqchi bo‘lsam, “yana ozgina o‘qib, o‘zim chiroqni o‘chiraman”, – deya kitobga berilib ketardi. Ba’zida kechroq tursa-da paxtani chopiq qilishmi, hosilni yig‘ib, terib olishmi, hammasiga ulgurar, hammadan o‘zib ketardi. Yuqori sinfdalik, talabalik davrlarida, qatag‘on davrda qabristonlarga yashirib qo‘ylgan kitoblarni izlab topib, uyga keltirganlarini eslayman. Negaki, u arab alifbosini bilar, fors tilini o‘rgana boshlagandi, – deydi Saodatjon ona.

Xullas, ana shunday kitobga oshnolik, tirishqoqlik bois mакtabda Rahima Erkaboyeva, Guljon Ro‘zimova, Nazar Nurjonov, Xotira Zokirova, Muborak Qodirberanova kabi ko‘plab o‘qituvchilarning hurmat-e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Bugun oradan yillar o‘tib, Saodatjon ona va oila a’zolarining avaylab saqlagan merosi – Bahodir akaning yozgan kundalik daftarlari, yozgan she’rlarida mакtab davri, sinfdoshlari, umuman bolalik va o‘spirlinlik yillariga oid voqealarni ko‘p o‘qiyimiz. Ularda Bahodir akaning do‘satlari, u kishining mакtab va uy, dala ishlariga bo‘lgan munosabati, qanchalik mehnat qilganligi yozilgan.

Mana masalan, 1973-yil – 14 yoshligida yozgan kundaligidagi satrlarga e’tibor beraylik: “Bugun 4-sentabr. Bugun eng katta bayram – Beruniyning 1000 yillik to‘yi. Ertalab 7 da o‘rnimdan turdim. Yuvinib bo‘lib, nonushta qildim. Keyin kiyinib mакtabga jo‘nadim. Tuflim quyosh nurida yaltiraydi. Chunki, unga qora kremni erinmay surtkan edim. Sinfga kirsam qizlar o‘tirgan ekan. Men ularga “Sizga Beruniy yubileyi kuni yaxshi kayfiyat tilayman”, – deb tashqariga chiqdim. Yo‘ldosh (sinfdoshi nazarda tutilayapti – U.B.) sakkizinchisinfda birinchi “besh” baho oldi. Uyga kelib, yechinib, bir oz dam oldim. Keyin bir g‘ujum uzumni yuvib, mazza qilib yedim. H.G‘ulomning “Mash’al” romanini ikkinchi marta o‘qib chiqdim. Singlim Xosiyat (1971-yil tug‘ilgan, o‘sha vaqtida 2 yosh bo‘lgan – U.B.) bugun juda ham quvnoq bo‘ldi. Balkim u ham “Bobokalonim Beruniy to‘yida yig‘lab, onamga ozor bermay, aksincha uni quvontiray”, – deb o‘ylagandir. Ming afsus, shunchalik urinib ko‘rdim she’r yozishga, lekin bu ilhom qurg‘ur kelmaydi. Agarda she’r yozsam, men bir necha yillardan keyin “men bu she’rni Beruniyning 1000 yillik to‘yi kuni yozgan edim-a”, – deb eslab yurardim. Ming afsus, afsus. Men Beruniyning 1000 yillik to‘yiga sovg‘a tayyorlay olmadim. Ammo kelajakda Beruniy nomiga shunday ajoyib sovg‘alar tayyorlashim kerakki, toki Beruniy nomi dunyoda, fanda abadiy qolsin!

Biz agarda fanlarni bir qasr deb atasak, Beruniy – fanlar qasrining bunyodkoridir. Beruniy nomi abadiydi”.

14 yoshli bolaning kundaligidagi ushbu satrlar muallifning naqadar aql-u zakovatidan, samimiy va tirishqoqligidan, kelajakka intiluvchanligidan darak beradi. Ana shu intiluvchanlik bois u maktabni muvaffaqiyatl bitirib, 1976-yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirdi.

#### TALABALIK DAVRI



“Men Toshkent politexnika institutida o‘qishni tugatgan 1976-yili Bahodir jurnalistikaga kirish istagida poytaxtga kelgandi. “Men keldim, siz esa ketib borayotibsiz”, – deya afsuslangandi u. Chunki, oramizda 5 yosh farq bo‘lishiga qaramay, bolalikdan birga o‘ynab o‘sgandik, u zavq-shavqqa to‘la, g‘oyatda ta’sirchan yigit edi. Bolaligidan ko‘p kitob o‘qigani bois, odamning yuz tuzilishi, qiyofasiga qarab uning fe’l-atvorini bilib olardi. Beruniy,

Gyote singari dunyoga mashhur ilm, ijod ahlining asarlarini qo‘ldan qo‘ymay o‘qirdi. Shu sabab imtihonlardan muvaffaqiyatl o‘tib talaba bo‘ldi, – deya xotiralarini o‘rtoqlashadi Pirnafas Nurillayev.

Yangibozorlik jurnalist O‘rozmamat Yaxshimurodov Bahodir akadan bir yil keyin universitetga o‘qishga kirgan. U kishi marhum munaqqid bilan ilk uchrashuvlarini shunday eslaydilar:



“Toshkentda talaba bo‘lganimdan quvonib o‘qishga borgan paytlarim. Darslar oralig‘idagi tanaffus paytida Farhod va Bahodir ismli talabalar o‘zlarini tanishtirib, “guruhingizda xorazmlik talabalar bormi?”, – deya so‘rashdi. Men ham shevada gaplashganim uchunmi yurtdoshlik hissi bilan Bahodir aka “Nerdansiz? Gurlandanmi?” deya so‘radi. O‘zimdan kattaroq ko‘ringan, buning ustiga 2-guruhsda o‘qiyotgan talabaning “Siz”lab so‘rashishi boshqacha tuyuldi.

Jurnalistikada o‘qiyotganim uchunmi “Bog‘olondan, shoir Omon Matjonning qishlog‘idan” – deya maqtangan bo‘ldim. Shunda u kishi , “Bog‘olon toponomi qanday ma’noni anglatadi?” – deya so‘rab qoldi. Men keksalardan eshitganim bo‘yicha Bog‘olon bilan bog‘liq rivoyatnamo gapni aytdim. O‘shanda Bahodir Sodiqov “Xorazmdagi ko‘plab joy nomlari urug‘ nomi bilan bog‘liq. Xususan, Bog‘olon ham olon urug‘iga aloqador, – deya olon, os, massaget singari qadimda Xorazmda yashagan urug‘, qavmlar to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tgandi. Keyinchalik Bahodir Sodiqov bilan ancha yaqin bo‘lib qoldik. Bahodir aka doimo biz o‘shanda eshitmagan Xorazm tarixining turli voqealari to‘g‘risida gapirib berardi. Uning ijaradagi xonasida S.P.Tolstov, Y.G‘ulomov, M.Yo‘ldoshevlarining Xorazm tarixiga doir kitoblarini ko‘rgandim. Bahodir aka men va hamrohlarimga ushbu kitoblarni ko‘rsatib, ana shunday teran tadqiqot, yuksak saviyali asarlarni o‘qishni maslahat bergandi.

Ha, oilada tarixga, ajdodlar yodiga ehtirom ruhida voyaga yetgan Bahodir Sodiqov o‘z davrining talabalari orasida hurmat-u e’zozga sazovor bo‘lgan shaxs darajasiga yetgandi, desa bo‘ladi.

#### SO‘NGGI KUNLARI

1980-yil yozida Bahodir Tojikistonda amaliyotni o‘tagani bois, uyga kuz faslida keldi. Bu vaqtda paxta terish mavsumi boshlangandi. U doimgidek bu safar ham kitob mutolaasi, yozish-chizish bilan mashg‘ul edi. Biz otasi bilan uning iqtidorini sezib, bolaligidan uni o‘z erkiga qo‘yib bergenimiz uchun, ishiga xalaqit bermasdik. Hattoki, dadasi bilan maslahatlashib, “Bahodir, seni uylantiraylik

endi”, – deganimizda, u “ukam Bahromboyni uylantiravering”, – deya taklifni rad qilgandi. Biz ham uning fe’lini bilganimiz bois qistovga olmaganmiz. Chunki uning fikr-u yodi fanda, ijodda edi, – deya o‘g‘lini xotirlaydi Saodatjon aya, – sentyabr oyi boshlarida Karimbergan akaning Toshkentda yashovchi jiyani Bobojon, o‘g‘li Saidjon bilan mehmonga kelishgandi. Bahodir Toshkentda o‘qiganligi, qarindoshligimiz sabab ular bilan ancha qadrdon edi. Shu bois doimgidek Shovotyopdan baliq tutishga birga borishardi.

“Sinfdoshim Bahodirni 9-sentabrdagi paxta dalasida ko‘rganman. U boshqa sinfdoshlarimiz, ularning nima bilan mashg‘ulligi, hol-ahvollarini so‘rab surishtirdi”, – deydi Norgul Norboyeva.

“5-sentabrdagi Shovotyopda suv kamaydi. Chunki, barcha ekinlar sug‘orib bo‘lingan, endi nasoz ishlatishga hojat yo‘q edi. Suv kamligi baliq tutishga qulay edi. Ayniqsa, yopning Muhammadniyoq otaning uyi to‘g‘risidagi qismidan ko‘p baliq ushlaganimiz esimda. Shu taxlit men Bahodir bilan to 10-sentabrgacha yopdan baliq tutish bilan mashg‘ul bo‘ldik. Bir gal Bahodirning 14 kilogramm baliq tutib hammamizni quvontirgani, uni o‘zi pishirib hammaga – terimchilar-u, qo‘snilarga tarqatgani esimda. O‘sha vaqtлari men Urganch qurilish texnikumida ishlar, uyim ham shaharda edi. 11-sentabr kuni Shovotga bora olmadim”, – deydi 1980-yil sentabrinini xotirlab Pirnafas og‘a Nurillayev.

11-sentabr kuni ertalabki soat 10 larda viloyat shifoxonasida davolanib yetarkanman, hamshira kelib “Sizni do‘stingiz yo‘qlayapti, kiraversinmi”, – deya so‘radi. Ruxsat bergach, xonaga soqollari o‘sgan holda Bahodir kirib keldi. Bahodir jiyanim Farhod Ibodullayev bilan bir guruhda o‘qiganidan oldiniga tanish, keyin esa suhbatlashaverib qadrdon do‘stga aylangandi. Qachonki Toshkentga borsam, Farhod ikkalasini ko‘rib ketar, agarki Bahodir ta’tilga chiqib, vohaga kelsa, men ishlayotgan “Xorazm haqiqati”ga yoki uyimga kelardi. Ijodkor emasmizmi, suhbatlarimiz adabiy jarayon, matbuotga kelib taqalardi, – deya xotirasini o‘rtoqlashadi katta hayotiy tajribaga ega keksa jurnalist Husayin Rahmonov, – Qarasam Bahodirning qo‘lida bir sumka shaftoli. O‘tirib suhbatlashgancha shaftoli yeyarkanmiz u ijodiy rejalarini o‘rtoqlashdi: “Ahmad Yassaviy merosini chuqur o‘rganmoqchiman. Menimcha, u biz tilga oladigan mutafakkirlardan ham buyukroq. Ijodi esa hali mukammal o‘rganilmagan”. Men unga o‘z fikrlarimni aytdim. Xullas, shu taxlit u bilan 2 soatcha har galgidek adabiyot, tarix va merosni o‘rganish bo‘yicha, uning yozgi ta’tilda Tojikistonga borib amaliyotni o‘tagani, Dushanbedagi “Fan” nashriyotiga ishga taklif qilinayotganligi to‘g‘risida suhbatlashdik. Bahodir “Sizni urintirib qo‘ymay, shundog‘am ko‘p o‘tirib qoldim” – deya Shovotga ketmoqchi ekanligini aytib, o‘rnidan turdi.

Xullas, o‘sha kuni peshin mahali Bahodir Sodiqov Urganchdan uyiga qaytib keladi. Uydagilar, qarindoshi Bobojon aka bilan suhbatlashgancha ovqat

tanovvul qilishadi. Keyin bir oz hordiq chiqarishgach, doimgidek baliq tutgani Bobojon aka bilan Shovotyopga ketishadi. Ularga 3 yoshli Saidjon ham ergashadi. Bu paytda Shovotyopda suv kamaygandi. Yopning soyroq joyidan narigi qirg‘oqqa o‘tishadi. Baliq tutib bo‘lishgach, ortga qaytishadi. Ana shu paytda Saidjon yopga tushib ketadi va Bahodir suvga sho‘ng‘ib bolani qirg‘oqqa olib chiqadiyu, o‘zi suvga oqib ketadi...

Ertasiga negadir bezovta bo‘lgancha texnikumga soat 7 larda kelganimda Bahodirning amakisi Sherifboy og‘ani ko‘rdim. U “Kecha Bahodir Shovotga tushib ketganicha qaytib chiqmadi. Uni topa olmadik”, – deya so‘zлади. Shu taxlit maxsus qutqaruvchilarga xabar berdik. Afsuski, qutqaruvchilar Bahodirni yopning suv to‘planib qolgan chuqur joyidan topishdi.

Bu paytda endigina 1-sinfga borgandim. Maktabdan kelsam, uyimiz eshigi yopiq. Qo‘shnilar “qarindoshingiz Bahodir og‘a qazo qilibdi”, – deyishgan, shu sabab ota-onam kelguncha ularnikida o‘tirganman, – deya o‘sha kuni chuqur qayg‘uga botganini so‘zlaydi o‘qituvchi Nargiza Abdullayeva.

Ha, taqdir yozig‘i tufayli hayotda orzu-umidlari hali to‘la ro‘yobga chiqmagan, shijoatli, matonatli yigit 21 yoshida shu tarzda vafot etdi. Uni tanigan, bilganlar chuqur qayg‘uga botishdi. Usmon Azim, Mirzo Kenjabeckabi shoirlar esa marhum munaqqid xotirasiga bag‘ishlab marsiyalar bitishdi...

#### XOTIRA UYG‘ONSAGINA GO‘ZALDIR

Jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirib, talaba bo‘lgan, zavq-u shavqda



yurgan 1980-yilning sentabr oyini edi. Ertalab shodon kayfiyatda auditoriyaga kirmoqchi bo‘lganimizda, bir xushsurat yigitning rasmi qo‘yilgan, she’ri yozilgan devoriy gazetaga ko‘zimiz tushdi. Unda beshinchibosqich talabasi Bahodir Sodiqovning fojiali vafot etgani, hayoti, ijodi yoritilgandi. Men shunda Bahodir aka xorazmlik yurtdoshimiz ekan-da, deb o‘ylagandim, – deya xotirlaydi jurnalist Dilbar Bekchanova.

O‘sha mash‘um fojiadan so‘ng Bahodir aka bilan talabalik davrida aka-uka tutingan, Urganch tumani Qoram on qishlog‘ilik Shonazar Avezov marhumning nomini abadiylashtirish tashabbusi bilan chiqadi. Yuqorida ta’kidlangan devoriy gazeta ham Shonazar Avezovning tashabbusi bilan ro‘yobga chiqqandi.

Sh.Avezov shu bilan birgalikda marhum do'stining yozgan ijodiy ilmiy ishlarini kitob qilib chiqarish, do'stlaridan u haqdagi xotiralarni yozib olishga ham kirishadi. Hattoki, o'sha yili Sirdaryo viloyatida kechgan paxta mavsumida, jurnalistika fakulteti talabalarini kechqurun bir joyga to'plab, marhumni xotiralash tadbirini o'tkazadi.

Kuzning salqin oqshomlarida, gulxan atrofiga to'plangan talabalar Shonazar Avezov va do'stlarining Bahodir Sodiqov to'g'risidagi xotiralari, she'rlari bilan tanishdilar. Dugonam Xoljon Yoqubova va boshqa birinchi bosqich talabalari, shundagina Bahodir og'aning naqadar yetuk iqtidorga ega bo'lganligini gulxan atrofida o'tirib sezgandik, – deydi Dilbarjon opa.

Shu tariqa Bahodir akani xotirlash, nomini abadiylashtirish 1980-yil sentabridayoq boshlangandi. Afsuski, ushbu tadbirlar tashabbuskori Shonazar Avezov 1984-yilda jurnalistika fakultetini tugatgach, harbiy xizmatni o'tash uchun Belarusianing Brest shahriga jo'nab ketadi va ... 1986-yil may oyida, harbiy xizmat endi tugay deganda, Shonazar aka ham fojiali vafot etadi. Sog'lom, uzun bo'yli, xushsurat yigitning taqdiri ham afsuski, do'sti Bahodir aka singari fojiali tugadi. Men bugun Bahodir Sodiqov nomini eshitsam, daf'atan universitetdagi devoriy gazeta, gulxan atrofidagi xotirlash kechasi va ushbu tadbirlar tashabbuskori Shonazar og'ani eslab ketaman va ular nomini duo qilib qolaman, – deydi Dilbar Bekchanova.

Oradan yillar o'tdi. Bahodir Sodiqovjisman yo'q bo'lsa-da, uni tanigan, bilganlar xotirasida ul kishining nomi hamisha barhayot, davom etaverdi... Yozgan maqolalari, she'rlari, tarjimalari orqali Bahodir akaning ikkinchi boqiy umri mangu qoldi... Bahodir Sodiqovning umri qisqa bo'lgani bilan, u kishi yozganlarining umri uzundir...

Agarda taqdir Bahodir og'aga istiqlol davridayam yashash, ijod qilish, fan bilan shug'ullanish imkoniyatini bergenida, adabiyot, tasavvuf ilmi, tarix sirlarini tadqiq qilib, Najmuddin Komilov, Ibrohim Haqqul, Begali Qosimov, Naim Karimov, Suvon Meliyev, Dilmurod Qur'onov, Bahodir Karim, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam singari yetuk adabiyotshunoslar safida turgan bo'lardi. Biroq Bahodir Sodiqov 21 yoshigacha ham ilm deganda faqat ilmiy daraja, unvonni, diplomni tushunadigan bandalardan ko'proq asarlar yaratib, o'z nomini tarix sahifalariga muhrladi.

Shu boisdan ham Shovotning sharaflı Bahodiri, o'zbekning 21 yoshida ham yetuk munajjidi, shoiri darajasiga chiqqan ijodkori xotirasini e'zozlash, bugungi istiqlol farzandlari uchun ham qarz, ham farzdir.

## FILOLOGIYA

### ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON TALQINI VA ULARNING G'OVAVIY TARBIYADAGI O'RNI

UO'K 822.512.133



**Baro  
YUSUPOVA**

*Xiva shahri Ogahiy nomidagi ijod maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*Annotatsiya: ushbu maqolada Navoiyning asarlari orqali jamiyatda ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga hissa qo'shish mumkinligi yoritib berilgan.*

*Аннотация:* в данной статье освещается возможность внесения вклада в повышение духовности и просвещения общества посредством произведений Навои.

*Annotation:* this article highlights the possibility of contributing to raising spirituality and enlightenment in society through Navoi's works.

*Kalit so'zlar:* Navoiy, doston, g'oya, ma'naviyat, ma'rifat, barkamol avlod.

*Ключевые слова:* Навои, эпос, идея, духовность, просвещение, совершенное поколение.

*Key words:* Navoi, epic, idea, spirituality, enlightenment, perfect generation.

*Odam ersang demagil odami,  
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami  
Alisher NAVOIY*

Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida madaniyat va san'at tarixi, xususan, sharq adabiyoti, uning yirik vakillari hayoti hamda ijodiga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Dunyo tamadduni tarixida Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari o'zlarining betakror boy adabiy merosi va milliy qadriyatlari bilan muhim o'rinn egallaydi. Antik davr adabiyotidan tortib Sharq va G'arb adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotining bugungi bosqichiga qadar har bir jamiyatda ijodkor va uning shaxsiga bo'lgan qiziqish kuzatiladi. Ayniqsa, buyuk mutafakkir, davlat va jamoat arbobi, shoir Alisher Navoiy merosi va shaxsiyatini yangicha nazariy asoslarda o'rganish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan dolzarb vazifalaridan hisoblanadi [1].

Alisher Navoiy shaxsiyati, uning jahon madaniyati, xususan, adabiyotga qo'shgan ulkan hissasi va umuminsoniy ijodini tadqiq etish, ilmiy

adabiyotshunoslik doirasidagi milliy, diniy va ma'rifiy qarashlarini umumlashtirish, tizimlashtirish hamda bundan dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi [2].



O'zbek adabiyotshunosligi Alisher Navoiy ijodiy-ilmiy merosi va shaxsiyatini o'quvchilarga asl mazmun-mohiyati bilan to'g'ri yetkazish davr talabidir. Buning uchun, avvalo, mamlakatimizda shu paytgacha navoiyshunoslikda amalga oshirilgan ishlarni jiddiy tahrirdan o'tkazish, ularga bugungi kun talabidan kelib chiqib, baho berish muhim ahamiyat kasb etadi.


Shu boisdan ham ulug' shoir ijodiy merosi xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, yosh avlodni Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni maqsadlarga erishish uchun Alisher Navoiyning adabiy-badiiy, ilmiy-nazariy merosini mumtoz adabiyot an'analarining asosi sifatida bugungi islohotlar jarayoniga tatbiq etilishi, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qilishga yo'naltirish muhim ma'rifiy tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero, yangi davr badiiy-estetik qarashlari asosida Alisher Navoiy fenomeni ahamiyatini aniq belgilash, uning siyosiy talablardan xoli bo'lgan mukammal tarjimayi holini yaratish navoiyshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Buyuk mutafakkir, g'azal mulkining sultonи hazrat Alisher Navoiy o'zining nasriy va nazmiy asarlarida, o'lmas dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan komil inson, barkamol shaxsni tarbiyalash, mukammal jamoa va odil hukmdor haqidagi ta'limotlarni ilgari surdi va bunday ijobiy tarbiyaning xalqqa, jamiyatga va shaxsning o'ziga ko'rsatadigan ijobiy taraflarini asoslab beradi. Uning insonparvarlik, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, axloq va xulq-odob qoidalari, ta'lim-tarbiya, yuksak insoniy qadriyatlar to'g'risidagi dono fikrlari keyingi davrlarda va hozir ham o'zining qadr-qimmatini yo'qtGANI yo'q. Shuning uchun ham juda kuchli g'oyaviy ta'sir kuchiga va so'zning quvvati, ya'ni sehriga ega bo'lgan mutafakkir hazrat Navoiy merosidan biz yosh avlodni barkamol, ya'ni komil inson qilib tarbiyalashda, bugungi kunning o'tkir qurollari bo'lgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda, ularga qarshi kurash usuli

bo‘lgan g‘oyaviy tarbiyada keng ko‘lamda foydalanamiz va bu o‘zining amaliy ahamiyatiga egadir [3].

Alisher Navoiy asarlarining g‘oyaviy tarbiyada tutgan muhim o‘rni uning komil insonni, bugungi kun nuqtayi nazari bilan aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyati bilan belgilanadi.




Alisher Navoiy komil inson to‘g‘risida butun bir ta’limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g‘azallari, “Xamsa”ga kirgan dostonlari, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqalarda komil inson qanday bo‘lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan [4].

Navoiyning komil inson ta’limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo‘lgan muhabbat belgilaydi. U payg‘ambarlar, aziz avliyolar, pir-u komillar, orif-u so‘fiylar to‘g‘risida so‘z yuritganda, g‘azal va ruboiyalarida tabarruk zotlarning xislat va fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan. Tasavvufshunos Ibrohim Haqqul fikricha, “Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to‘rt ustuvor asosga, ya’ni Axloq go‘zalligi, qalb tasfiyasi, Ruhiyat qudrati va tafakkur balog‘atiga tayanadi”.

Mutafakkir payg‘ambarlar, avliyo va oriflar, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo‘sadi. Bunday zotlar doimo xalq g‘amida yashaydilar, atrofdagilarga mehr-muruvvat ko‘rsatib, beva-bechoralarga yordam beradilar. Barkamol zotlar insonlarning eng a’losi bo‘lib, butun umr poklanish va Haq yo‘lini ixtiyor qilgan kishilardir.

Mutafakkir nabiyalar, ya’ni payg‘ambarlardan so‘ng valiylarni komil insonlar deb talqin qilgan. Alloma avliyolar amal qiladigan tavba, halol rizq bilan oziqlanish, tariqat odobini saqlash, kamtarlik, muloyimlik, saxiylik, sabrlilik singari xislatlarga to‘xtab o‘tadi, xususan, u halol luqma deganda, valiyning biror kasb bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘z mehnati bilan kun ko‘rishini tushunadi. Darhaqiqat, tasavvufning yirik vakillari, valiylar muayyan bir kasb-hunar bilan shug‘ullanganliklari tarixdan ma’lum. Navoiyning zikr qilishicha, “mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo‘z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu Hafz Haddod temirchi, Shayx Abulabbos Omiliy qassob, Shayx Abulhasan muzayin, Shayx Banon hammol, Bahovuddin Naqshband esa matolarga naqsh soluvchi bo‘lganlar”.



himmat, xokisorlik,adolat, adab kabi sifatlarni ajratib olib, qariyb hamma asarlarida qayta-qayta turli voqealar tasviri munosabati bilan ta'kidlab o'tgan. Bu sifatlar nainki odamni ulug'vor, fozil va mo'tabar etadi, balki Ilohga yaqinlashtiradi, ilohiy xislatlarga moyil qiladi, – deydi ulug' mutafakkir. Bu axloqiy talablar Navoiy davri mafkurasidan kelib chiqadi, aniqrog'i asrlar davomida ishlangan, qoidaga kiritilgan, ta'lim-tarbiyaga singdirilgan g'oyalardir.

Komil insonni tarbiyalash masalasi hozirgi mustaqillik sharoitida ham dolzarb bo'lib turibdi. Buning boisi shuki, "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari doirasida ushbu masala yanada dolzarb qilib qo'yilmoqda. Kishilararo munosabatda ba'zi qadriyatlarning qadrsizlana boshlaganligi, yoshlar orasida giyohvandlik, firibgarlik, o'g'rilik va boshqa yaramas illatlarning tez-tez sodir bo'lib turishi barkamol avlodni tarbiyalashga diqqat-e'tiborni qaratishni taqozo etmoqda.

Ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy asarlarining ustuvor tamoyillari haqida gapirganda ulug' shoir merosining yosh avlod tarbiyasida keltirib o'tilgan bugungi kunning barkamol insoni sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Ulug' mutafakkirning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonida ham tasavvuf ta'limoti nuqtayi nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim o'rinnegallaydi. Dostonda Farhod va Shirin, Layli va Majnun o'rtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, ya'ni Shirin, Laylilar siymosida Allohga bo'lgan ishq bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Unda zohiriyiksiz ilohiy ishqqa, dunyoviyiksiz Haqqa etishib bo'lmasligi to'g'risida fikr yotadi.

Navoiy nazarida insonni sharaflovchi jamiki fazilatlarni komil inson g'oyasining ustuvor jihatlari deb kiritish mumkin. Ammo bular orasida u iyomon, qanoat, saxovat, ilm-ma'rifat, vafo,

birinchidan, Navoiy nazarida komil inson, ya’ni har qanday kamchilik va nuqsonlardan xoli bo‘lgan barkamol shaxs hayoliy bir timsol emas, balki o‘zida butun zohiriylar va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarni mujassam etgan real hayotda bor kishi;

ikkinchidan, axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm,adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining o‘zagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Unda naqshbandiylik tariqatining, futuvvat, ya’ni javonmardlik oqimining ta’siri seziladi.

uchinchidan, sho‘rolar davrida Navoiy dostonlaridagi ikki yoshning bir-biriga muhabbat faqat dunyoviy, zohiriy nuqtai nazardan talqin qilindi, vaholanki, komil inson va barkamol avlodni tarbiyalash to‘g‘risidagi ta’limotlarni tahlil qilganda, uning dunyoviy va ilohiy, zohiriylar va botiniy jihatlari, ularning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini yoritish zarur masalalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, barkamol insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish, respublikamizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan hozirgi davrda millat quyoshi Alisher Navoiyning ma’naviy merosi, serqirra ijodini o‘qish va o‘rganish yoshlar ma’naviyatini o‘stirish, Navoiy mezonidagi komil inson qanday bo‘lishi kerakligini teran anglashlari va ulug‘ ajdodlariga munosib vorislar bo‘lib etishishlari uchun ilmiy-ma’rifiy jihatdan yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nasrullayev E.J. Navoiy timsolini yaratishda turkiy til imkoniyatlari // Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Qoshg‘ariy va Alisher Navoiyning lingvistik merosi hamda uning turkiy tillarni o‘rganishdagi o‘rni. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Samarqand, 2018. – B. 144-145-betlar.
2. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. – T.: “Sharq”, 1996., 38-bet.
3. Muxiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. - T.:“Ma’naviyat”, 2005 - 208-bet.
4. Qayumov A. Alisher Navoiy. – T.: “Kamalak”, 1991. – 176-bet.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

# ***INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT***

**9-10 (5)  
2023-yil, oktabr-noyabr.**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Mas'ul kotib:	U.Bekimmetov
Musahhih:	J.Sobirov
Texnik muharrir:	M.Kuranbayev
Navbatchi:	J.Sobirov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqt: 14:00. Topshirildi: 14:00.

Qog'oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 4 b.t. Buyurtma №0007.

Nashr ko'rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Milleniumus print" MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, "Shermatlar" MFY, Tadbirkorlar ko'chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, "Mustaqillik" MFY,  
Gurlan ko'chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22